

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi

404- guruh talabasi

**MUSTAHKAM OILA-SOG'LOM DUNYOQARASHNI
SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

(boshlang'ich sinflar misolida)

Bakalavr darajasini olish uchun

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

Termiz - 2013 y

MUNDARIJA

KIRISH.

1-BOB. MUSTAHKAM OILADA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Sharq mutafakkirlari merosida oilada farzand tarbiyasi masalasining yoritilishi.

1.2. Oilada sog'lom dunyoqarashni shakllantirish pedagogik zaruriyat ekanligi.

Bobga xulosalar.

2-BOB. OILADA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, USULLARI VA VOSITALARI.

2.1. Oilada sog'lom dunyoqarashni shakllantirish omillari.

2.2 Sog'lom muhit sog'lom dunyoqarashni shakllantirish sharti sifatida.

2.3 Qadriyatlar orqali sog'lom dunyoqarashni shakllantirish shakllari.

Bobga xulosa

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor». Prezidentimiz fikrlarida oilaning, eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir rolini ta'kidlangandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarining, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarining tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Bugungi kunda oiladek ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir. Chunki oila asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir.

Aynan mustaqillik yillarida yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko'plab nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o'tmish allomalarning falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'gitlari; ma'no-mohitiga mosdir. Sharqning buyuk mutafakkirlari sanalmish Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onaning dunyoqarashi, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan me'yorlarning oila qadriyatlariga- muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan. Chop etilayotgan qator risola va kitoblarda, ilmiy va ommabop maqolalarda ham bu masalaning turli jihatlari yoritilmoqda.

Bolalarda bilimlarni egallashga bo'lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning-shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo'lib, bu oila tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish ularni vaqtdan samarali va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari - jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim-tarbiya berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oilada muhitida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya o'zida bolani har jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sogligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi.

Oilada tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Uning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar, ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek atrofdagilarga nisbatan adolat, mehr-muxabbat kattalarga hurmat, kichiklarga vijdon, or-nomus, gurur, burch, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sahovat, to'g'riso'zlik, kamtarlik muruvvat, intizomni ijtimoiy anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir.

Oilada estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och badan, me'yorida ortiq qilingan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli»,

o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki takinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim.

Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi.

Oila qadim - qadimdan muqaddas dargoh deb hisoblanib kelingan. Inson turmushini oilasiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki u umri mobaynida oila ta'sirini sezib turadi, dastlab ota-onasining oilasida, so'ng o'zi qurgan oilasida hayot kechiradi. Har ikki holda ham oila insonning shaxs sifatida qaror topishiga muhim tarbiyaviy ta'sir kursatadi. Insonning shaxs sifatida hayotiy xususiyatlari, so'zsiz, oilada shakllanadi. Oilada u ona tilida so'zlashishni o'rganadi. Millati, xalki urf-odatlarini, an'alarini, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, dunyoqarashi, mafkurasi shakllanadi. Shu sababli oila jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy - axloqiy tayanchi hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li" asarida jamiyatning asosiy negizi bo'lgan oila, yoshlar tarbiyasi, insonparvarlik, vatanparvarlik haqida to'xtalib: "Oila - jamiyatimizning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro xurmat va qattiq tarbiya bo'lmasa, barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir - biriga ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab - ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi.

Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat. inson qalbining gavharidir" - deydi va musulmon o'zbek davlati xalqimizning tarixiy yutug'i ekanini aytib, shu davlatda yashayotgan inson, oila boshliqlarining oldida turgan asosiy vazifalarini aniq ko'rsatadi.

Har bir oilada dunyoga kelgan bola - yosh avlod davlat o'rtaga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishda fidokorlik, mehnatsevarlik bilan xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirilishi kerak.

Utmishda oilada yosh avlodni xayotga tayyorlashda qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, oiladagi o'ziga xos urf - odat va an'analar, oila boshliqlari sanalmish ota va onalarning tarbiya haqidagi g'oyalari, hayotiy tajribalari milliy xalq tarbiyasida mujassamlangan. Unda yosh avlodni oilaviy xayotga tayyorlash jarayni murakkab, serqirra va uzluksiz bo'lib, ularning kelgusi oilaviy hayotga to'laqonli tayyor bo'lishi uchun eng muhim talablarni, insoniy xislarni shakllantirishi muhim va zarurdir.

Hozirgi davrda oilalarning buzilishi bolalarning ota yoki ona mexridan erta juda bo'lishining asosiy sabablari ham oila qurish va o'z tengini tanlashda oqillikning yetishmasligi, hulq-odob hamda oilaviy munosabatlar me'yorlariga rioya etmaslik, oila xo'jaligini yuritishda uquvsizlik, ma'naviy qashshoqlik va tekinxo'rlikdir.

Yosh avlodni oilaviy xayotga ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Ota - onalar tomonidan (oilalarning muxitida).
2. O'qituvchilar tomonidan (ta'lim muassasalarida).

Bu xar ikki yo'nalishda ham o'ziga hos yordamchi omillar mavjud bo'lib. ular mahalla, jamoatchilik, maktabdan tashkari muassasalar va boshkalar hisoblanadi.

O'z xayot tajribamga asoslanib shuni aytmoqchimanki, bolada eng katta ishonchni oila a'zolari tashkil qilar ekan. Bolaning atrofdagi olamlarga munosabati, oila a'zolari o'rtasidagi munosabat ahlokiy jihatdan qanchalik yuksakligiga bog'liqdir. Ota - ona mehridan g'amxo'rlikdan baxramand bo'lmagan, oilaning har tomonlama ximoyasini xis etmagan bola o'z atrofidagi insonlardan doimo xavotirda, xadiksirab yashaydn. uni aksi bo'lgan oilada esa, aksincha bolada atrofdagilarga nisbatan xurmatini kuchaytiradi, uning ijtimoiy faoliyaitini oshiradi.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. O'zbek oilasidagi tarbiyaning o'ziga xosligi va kadr-qimmatini shunlaki. b\ yerda farzandlar ongiga eng e'tiqodni singdirish jarayonida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita ishtirok etadilar. Azaliy turkiy udumga

binoan ota-onadan ham ko'ra bobo- buvilarning tarbiyaviy ta'siri kuchliroq bo'ladi. 'Garixdan ma'lumkn, aGshan keksalar oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari bo'lganlar. Masalan, Saroy Mulk xonim Shohruh Mirzoni, suyakli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolar tarbiasini o'z bo'yniga olgan. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan oilaviy urf-odat, marosim va bayramlar ham farzandlarni oila muhitida to'g'ri tarbiyalashda muhim omil bo'ladi. Har bir oilaning rioya etilishi lozim bo'lgan an'analari va rasm-rusmlarining borligi, ularning jamiyat va mahalla an'analari oilap uyg'unligi ham bolada oilaga nisbatan e'tiqodni tarbiyalashning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi: Oila tarbiyasi, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, mazkur jarayonda milliy qadriyatlar, shu jumladan, xalq pedagogikasi g'oyalaridan foydalanish, shuningdek, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila, makshb va jamoatchilik xamkorligi masalalari M.Inomova, A.Munavvarov, xamda M.Xolmatovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

O.Musurmonova, S.Ochilov, S.Raximov, D.Holiqov, D.J.Sharipova, F.Shoumarov, S.Yo'ldosheva kabi olimlarimiz tadqiqotlarida oilada milliy tarbiya masalasining turli qirralari bayon qilingan. Hozirgi kunda olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda ham ota-onalarning farzand tarbiasida milliy tarbiyaning ijobiy metodlaridan samarali foydalana olmayotganligini salbiy metodlar uchrayotganligini ko'rsatmoqda. 11.] u ma'noda biz oilada sog'lom dunyoqarashni shakllantirish muhim omil ekanligini tadqiqot mavzusi etib oldik.

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jimiyyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilaga alohida e'tibor berish va uni har tomonlama asrab avayo'lash, oilanish sog'lom iqlimi ota-onaning bir-biriga mehri va hurmat muhim ekanligi, hamda oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shaqllantirish va har bir oilaning mustahkamligi, faravonligini ta'minlashga qaratilagan.

Mavzuning vazifasi: Oilada milliy ijtimoiy fazilatlar va ularni shaqllantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish.

Oilada milliy tarbiya metodlarini o'rganish va takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish. Ota-onalar milliy pedagogik mahoratlarini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning ob'ekti: Oila, maktab, mahalla va jamoatchilik.

Mavzuning iredmeti: Mavzuga oid keraqli foydalaniladigan adabiyotlar va respublikada chop etiladigan gazeta, jurnallar. ilmiy ishlar.

Mavzuning metodlari: Tarixiy, falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish, anketa, kuzatuv, suhbat, pedagogik tajriba, matematik, statistik metodlar.

Mavzuning yangiligi: Mustaqillik sharoitida bolalarni jamiyatimiz talabiga mos tarzda tarbiyalashda oila va oilaviy tarbiyaning roli va o'spirin yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi hamda milliy mafkura g'oyasini yoshlar ongiga singdirishdan iborat.

Mavzuning farazi: Oilada o'spirin yoshlarni milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Mavzuning metodologik asosi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", o'zbek xalq pedagogikasida ilgari surilgan qarashlar, milliy istiqlol goyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, O'zbekiston Respublikasining "Oila" Kodeksi, Respublika Prezident I.A.Karimov asarlarida il[l r;; r., g'oyalar, shuningdek, jamiyati ma'naviyatini shakllantirish borasidagi davlat siyosati mazmunidan iboratdir.

I. Bob. MUSTAHKAM OILADA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

1.1 Sharq mutafakkirlari merosida oilada farzand tarbiyasi masalasining yoritilishi.

Respublikamizda ma'anaviy barkamol jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmokda. Bu vazifani bajarish o'zbekistonimizni kelajakda rivojlangan mamlakatlardap biriga ayoqlantirishning muhim shartidir. Buyuk davlatning poydevoriii mustahkam, soglom oila avlodlari barpo etadi.

Har tomonlama yetuk soglom avlodni shakllan I irishda oi.tp.pm \)p,1 muhim va betakrordir.

Inson barkamoligining dastlabki asoslari ham oilada shaqllanishi shubhasiz. Jamiyat mustahkam ma'naviy va axloqi jihatdan soglom oiladan manfaatdordir. Shu sababli xukumatimiz oilani mustahkamlashni, bolalar tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashda yordam berishni davlat ahamiyatiga molik ish deb biladi.

Tarixga nazar tashlasak, ota bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor berganliklarining shohidi bo'lamiz. Foroboy, Beruniy. Ibn S.'ino.A.Navoiy, A.Jomiy singari buyuk allomalarimizning asarlarida ham oila a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-onasning, oilaning o'rni masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan.Ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlariga maktublar, hikmatli so'zlar orkali nasixamarnp hayotiy xulosalarni yozib qoldirganlar.o'tgan asrning boshlarida yashagan M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, A.Qodiriy, Cho'lpon kabi ma'rifatparvar ziyolilar barkamol avlodni tarbiyalashning yagona chorasi- oila asoslarini to'g'ri qurish ekanligini, oilani m'S1 axkamlaxkk .l.: rp jamiyat taraqqiyotiga eriishib bo'lmasligini ta'kidlaganlar.

Muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol. ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insollar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'gitlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning [o'g'ri yulni tanlashlarida yo'l boshchi vazifasini o'tamoqda,

A.Fitratning "Oila" risolasida oila qurishning asl mazmuni, ota-ona va farzand huquqlari, oilaviy munosabatlar masalasi batafsil yoritilgan. A.Fitrat shunday yozadi: "Bolalarni o'ziga ishongan kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmatini, sha'nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni shuning bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"

Yusuf Xos Xojib "oiladagi" eng ulug' fazilat ezgu qiliq va go'zal hulqdir. Ikkinchisi rostlik, uchinchi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor bo'ladi, qut ikbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining hulqi go'zal bo'lsa uni barcha xalq sevadi. "Xulqi yuz bo'lgan kishiga to'rdan joy tegadi" - deganlar.

Qadimdan shunday gap qolgan "Qush uyasida ko'rganini qiladi" ya'ni, ha ota-onasiga tortibdi, deyishadi.

Yaxshi xulq ham yomon xulq ham bolalarga avvalo ota-onalardan o'tadi.

Demak har bir ota-ona o'z farzandiga yaxshi hislatlarni bolaligidan singdirgani ma'quldir. Shunda u ulgaygan sari oriyatli, nomusli, burchni his qiladigan hushmomala, odobli, bemorlarga hamdard bo'ladi. "Xddisi sharifda" "Sabr va bardosh tangridan, shoshqoloqlik esa shaytondandir" degan ulug' so'zlarni eslab o'tish joizdir. Shunday ekan oilaning katta yoshdagi a'zolarining bolaga qo'yadigan talablarni hamda ularga garoiyaviy ta'sir ko'rsatishlarda so'z bilan ishning bir bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Oilada bunday birlikni bo'lmasligi bola hulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi muhim. Bola tarbiyasi maktab, oila jamoatchilik va mehna! jamoalarning hamkorligida olib borilsa, tarbiyada ko'zlangan maqsad! a erishish mumkin. Shu bois keyingi paytlarda mahalla-kuyo'larda, turar

joyo'larda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ko'lami ancha kengaydi. Yaqinda jumhuriyatimizda madrasalar qoshida yoshlarni adolatli, iymoiili, ihlosmand, axloqli qilib tarbiyalash maqsadida o'qishlar tashkil iildi. O'qish

dasturi aynan yoshlarni "Qur'on Karim" va "Hadis sharif " rivoyatlari bayoni asosida tarbiyalashni ko'zlaydi.

Ota-ona farzandiga qancha qilsa ham oz, lekin farzand ham ota-onani hurmat qilishi lozim. Bu hakda qadimgi xikoyatlarda quyidagicha yoziladi.

Ey farzand! Aql yuzasidan bilginki ota-onaning izzat va hurmatini bo'yinga olish lozimdir. Chunki farzandning asli ota-onadir. Nima uchun ota-onani hurmat qilaman deb ko'ngilga keltirma. Bilginkim ular sening uchun o'limga ham tayyordirlar. Agar har farzand aklli va lono buxsn o'n- onaning mehru-muhabbatini ado etishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va senga yaxshilik o'rgatishdir.

Ey farzand! Ota-onaning ko'ngliiii sira ham ranjitma. Ularning qalbini azoblama. Sen ota-onaning hakiga din pukgai iacharpl:-;. r- qilmasang, ham aql va muruvvat nuqtai nazardan rioya qil, ko'rgil ota-ona seni jonu-dili bilan parvarish qilishar. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hyech qachon yaxshilikka sazovar emassan, chunki har kishi ota- onaning yaxshiligini bilmasa birovning yaxshiligiga baho bsrolmaidi. Farzanding seni hurmat qilishini istasang sen ham onangni hurmat qil, chunki sen ota-onangga nima ish qilsang farzanding ham senga shunday ish qiladi.

Bola mevaga ota-ona esa daraxtgga o'xshaydi, daraxtni yaxshi tarbiya qilsang mevasi yaxshi va shirin bo'ladi.

Shuningdek ota onaga izzat va hurmatni ko'proq qilsang ularning sen haqingdagi duosi tezroq mustajob bo'ladi.

Meros olish xirsi bilan ota-onaning o'limini also istamagil. Ularning rizqi orqali rizqqa ega bo'lasan, rizq taqsimlash kunda^i tiriklik deb o'zingni azobga qo'ymagil.

Sendan ham yaxshiroq bo'lgan kishiga xasad so'zi bilan karamagil.

Molsizlikdan qashshoq bo'lsang ham aqldan boy bo'lishga harakat qil chunki mol bilan boy bo'lgandan aqliy tomondan boy bo'lgan yaxshiroqdir. Aql bilan mol to'plasa bo'ladi. Lekin mol bilan aql to'plab bo'lmaydi. Johil tezda

kambag'allashadi. Ammo bilgilki aql bir qimmatbaho narsaki uni o'g'ri olib ketolmas o'tda yonmas suvda cho'kmas.

Agar aqling bo'lsa hunar o'rgan chunki hunarsiz aql, libossiz to'n yoki afti yo'q odamdir, derdurlarki bilim aql siymosi.

Ilm o'qib o'ssang izzat ko'rasan

Haqiqatning izin yaxshi bilasan.

Bosh tortib o'qishdan qilsang yalqovlik

So'ngra bolam ko'p pushaymon qilasan.

Aql raso bolalarim biladi.

O'qimagan nori-keyin qoladi.

Ilm bilgan kishi bilsang donodir!

Harna bir maqsadga ega bo'ladi.

Bu quyilgan yo'llar ko'p ulug' yo'dir.

Aqlli kishilar bu yo'lni biladi.

Odobli o'qingiz o'g'il qizlarim.

Fozil otang nasihati bil shuldir.

Bolaning ota-onaga peshvoz chiqishi yukini, kiymini qo'lidan olishi ham o'zbeklarning qadimiy odati. Masalan ota ishdan kelganda uning jajjigina o'g'ilchasi yoki qizalog'i yugurib borib kiyim boshini yechishga yordamlashadi. Oilaviy munosabatlar bolalarda yaxshi xislapshrni shakllantiradi.

Bobokalonimiz Alisher Navoiy shunday degan edi.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismi qil sadg'a ana boshig'a.

Tun-kun unga aylagil nurfosh,

Birisin oy ayla birisin quyosh.

Haqiqatdan ham ota-onaning hurmatini joyiga qo'ygan ularning pandu nasihatlariga quloq solgan o'z ota-onasiga ms'hribon farzapdsh! cha. ichnchp, odobli deb ataydilar.

Shuni unutmaslik kerakki ota-onaning quvonchi, xonadonning ermagi bo'lib qolmay balki farzand umr mevasidir. Oila faxri kelajak baxtidir. Oilada inson kamol toyadi. Jamiyatni bo'lgusi mehnatkash fuqarosi voyaga yetadi.

Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'i jihatdan oila tarbiyasiga, ota-onas'uliyatiga, vijdoniga, shuningdek ota-onaning bola tarbiyasini umumiy qonunyatlarini yaxshi bilishiga va haschda ularga qanchalik amal qilayotganiga bogliqdir. Ota-onalar bolalarning bugungi kundagi intilishlarini ommaviy manfaatlar bilangina cheklab qo'ymasliklari kerak. Bolaning qiziqishini umid va orzulari^ a sezgirlnk bilan quloq solish eng yaxshi tilaklarining qanoat yoshiga imkoniyat yaratilishi kerak.

Oila tarbiyasidagi asosiy talablardan biri shuki oiladagi katta yoshli hamma kishilar bolaga qo'yiladigan tarbiyaviy talablarda bir yokalan bosh chiqarib ish ko'rishlari kerak.

Ba'zan bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi, otasi bergan jazoni onasi bekor qiladi.

Bolaning bir qiligi'ini buvisi maqtasa shu qiligi uch\ n oga upi koyiydi va hokozo.

Bunday munosabat tarbiyada hatoliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bolalar kattalarni harakatlaridagi kelishmovchilikni ko'rib mug'ombirlik, aldamchilik, hushomadlik kilishga olallannilar. Bolaga nisbatan o'zaro kelishmagan talablar qo'yilganda u o'zini butunlay yoqotib qo'yadi va nima qilishni bilmay qoladi. Kattalar o'rgasidali janjal va mashmashani bola ko'rib turishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalamoq uchun er bilan xotinni oiladagi katta yoshdagi kishilarni o'zaro maslahatlashib bola tarbiyasida bir xil yo'l tutishlari g'oyat muhimdir.

Oila a'zolari o'rtasidagi ahillik o'zaro hurmat va g'amxo'rlik bola tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya ishi bilan doimo shug'ullanish kerak. Tarbiya goyat nozik, ko' p a darrov ko'rina qolmaydigan murakkab ish.

Uning natijasi birdaniga yuzaga chiqavermaydi. Tarbiya uzoq muddatga choʻziladigan ota-ona va kattalardan bilmdonlik, qunt sabr-chidam talab qiladigan jarayondir. Tarbiya ishi mungazam shugʻullanishni takozo l adi.

Tarbiyada paysalga solish "keyin" "vaqtim yoʻq" "bu arzimaz" "mayda- mayda" deb qarash yaramaydi.

Bunday munosabat keyinchalik katta-katta xatolarga olib kelishi mumkin. Tarbiyada hamma narsa muhim deb qilinishi lozim. o.lalarsh qoʻyiladigan talablar asta-sekin izchillik bilan murakablashtirib boriladi. Shuni alohida uqtirish zarurki, ota bilan ona oʻz farzandida qanday axloqiy sifatni tarbiyalanishi mumkun boʻlgan sharoitga solmogʻi lozim, zotan bir dasturxon ustida bolani ozoda ovqatlanishga oʻrgatib boʻlmaganidek, bolaga qoʻyilgan tarbiyaviy talablarni bajarilishini va kay tarzda bajarilayotganini sinchkovlik bilan kuzatib turib maʼlum axloqiy sifatlar tarbiyalanishi mumkin. Sharoitni yoritmay gurib bu koʻyilgan natijalarga erishib boʻlmaydi.

Tarbiya ishi avvalo oilada, maktab va tarbiya muassasalarida, jamoatchilik tomonidan muntazam, maqsadga muvofiq olib boriladi. Demak tarbiyaning muhim hususyatlaridan biri uning sistemali olib borilipti hamda muayyan maqsadga qaratilgapligidir. Bola taroimsida oʻlch¹ *..... .. buzilishi bolaning hulq-atvoriga oʻz taʼsirini koʻsatmay qolmaydi. Bola tarbiyasida ota-onani obroʻsini hal qiluvchi omillardan biridir.

Bolaning har tomonlama kamol topishi oila va oilaviy tarbiyaga bogliqligini Sharq mutafakkirlari doimo lpirots¹ igm kelganlar. Oilada bolaning dunyoqarashi, aqliy faoliyati, mehr- muhabbat hissi, vatanni sevish va vatanparvarlik kabi tuygʻulari tarkib topadi va takomillashib boradi. Shunday ekan, «Yoshlik-beboshlik» boʻlishi ham, «Yoshlik -donolikning boshlanishi» boʻlishi ham farzandlarimizga oilada berilayotgan tarbiyaga koʻp jihatdan bogʻliqdir. Ayniqsa, bu borada mutafakkirlarimizning benazir taʼlimotlari, oʻgitlari, asarlari, oʻzlarining hayot yoʻllari ibrag-namuna sifatida tarbiya vosigasi boʻlib xizmat qilishi muqarrar.

Masalan, «Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir», «Yoshlikda o'rgangan hunar - o'zingga o'ljaga qolar», «Yoshlikda bersin mehnag, qariganda bersin davlat», «Yoshlar xizmatda, kattalar hurmatda» va boshka shunga o'xshash hikmatli iboralar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mutafakkirlarning o'git-nasihatlariga jo'ra, oilada bolalarning yoshlik chog'idanoq bilimga qiziqish uyg'otish, kitob mutolaa qilishga odatlantirish, shuningdek, biror kasb-huiarga mehr qo'yishga o'rgappp jchp; qadriyatlarimizdan unumli foydalanishimizni taqozo e gadi.

Donishmandlarimiz farzaidlar tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, har bir yosh quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlaydilar:

- ota-ona va boshqa izzat-hurmatga ega zotlarning hurmatini joyiga qo'yish;
- aka-uka, yor-do'st, qarindoshlar va el-yurtga sadoqatli bo'lish;
- o'z vatani va xalqiga xizmat qilish;
- or-nomusi uchun kurashish;
- o'z nomusi, obro'-e'tiborini qo'riqlash;
- o'z oilasi or-nomusi uchun kurashish;
- oilasining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlash;
- farzandining el-yurt, Vatan manfaati uchun xizmat qilish;
- farzandlarni shijoatli, g'ayratli, matonatli etib tarbiyalash;
- oila va oila a'zolarini do'stlar davrasida shafqat va e'tibordan go'zal odatlardan bahramand etish;
- bo'sh vaqtini foydali ishlarga sarf etish va boshqalar. Donishmandlarning yaratgan o'git hamda pand-nasihatleri bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmay, ta'lim-tarbiya itpida o'z samarasini bermoqda.

Kaykovus o'zining «Qobusnoma» asarida ota-onaga hurmat! k>rsa1shp tuygusiga katta e'tibor berib shunday deydi: «Har bir farzandki, okil va dono bo'lsa, ota-ona mehr-muhabbatin ado etmakdin bosh tortmagay». Bu so'z bilan Kaykovus bir tomondan ota-onani hurmat qilinna, ularni ranjitmaslikka chaqirsa, ikkinchi tomondan ota-onani bolaga yaxshi va to'g'ri tarbiya berishga undaydi.

Ota-onaning ishi senga parvarish qilmoqlikdir va farmoni senga yaxshilik o'rgatmoqlikdir. Ey farzand, shul vajdan ota-onangni dagal ranjitmagil», deydi

Kaykovusning mazkur nasihatlaridan kimki o'z ota-onalariga qanday munosabatda bo'lsalar, ularning farzandlari ham kelgusida ularga nisbatan shunday munosabatda bo'lishlari muqarrar degan fikr kelib chiqadi. P1\ning uchun ham xalqimiz «Bu dunyo qaytar dunyo» deb bejiz aytmagan. Donishmandlarimiz o'zlarining qimmatli o'gitlari bilan inson zotini faqat yaxshilikka undab kelganlar.

Kaykovus ota-onani daraxtga o'xshatib shunday deydi: «Daraxtni xar qancha parvarish qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo'lur. Ota- onaga izzat va hurmatni ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur»

Xalq hikmatlarida ta'kidlapadiki, «Odamnnsh taip imm ichishga muhtoj bo'lsa, aqli ham odobga shunchalik muhtojdir. Odobsiz odam xalq orasida hych bir qadr-qimmatga ega bo'lmaydi. Odobli va tarbiyali bola otasining ayb va kamchiliklariga pardadek bo'lib, ularni yogshb, berkgib qoladi.

Odobsiz bola esa otasiniig obro'si, qadr-qimmati va e'tiborini yo'qqa chiqaradi»

Bobolarimizdan bizga ma'naviy meros bo'lib qolgan bunday purma'no o'gitlar, nasihatlar oilada o'spirin yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zardo'shtiylik (otashparastlik) dinining muqaddas asari "Avesto" Sharq xalqlarining eramizdan avvalgi ikki minginchi yillaridan tortib to oltinchi asrgacha bo'lgan davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, turmushi, urf-odatlarini diniy va axloqiy qarashlari yoritilgan asardir.

«Avesto» qadimiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan eng buyuk, bilimlar xazinasini hisoblanib, u o'z ichiga barcha diniy, dunsviy bilpmdarni qamrab olgandir.«Avesto» asrlar davomida insonlarni odob axloqli kilib tarbiyalanishida, ilmu-ma'rifatni egallashida dastur vazifasini bajarib kelgan. «Avesto» da «Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, u eng avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra yozishni o'rganib eng yuksak pogonaga ko'tarilsin», deyiladi.

"Avesto"da insonlarda odoblilik, mehnatsevarlik, saxovatlilik kabi insoniy fazilatlarning tarbiyalanishiga katta ahamiyat berilgan.

«Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar malakasi va ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Ular yosh paytidanoq ko'chat o'tqazish uchun, uy-ro'zg'or buyumlari yasash, yerga ishlov berish, mol boqishga o'rgatilgan.

Kur'oni Karim barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, ijtimoiy hayot tarzini tashkil etishda muhim qo'llanmaga aylangan.

Qur'onda diniy ilmlarni o'rganish - bilan birga dunyoviy bilimlar ham targib qilinadi.

Qur'oni Karimda bayon etilgan g'oyalar insonlarni ahillik, tenglik va axloqiy kamolotga chorlovchi, eng ulug' qadriyat bo'lib, bugungi kunda ham e'zozlanib kelinmoqda. Islom insonlarni yaxshilikka undaydi, insonning aqliy kamolotini rivojlantirishga katta e'tibor

beradi. Islom dinining asosiy maksadi kishilarni tug'ri yo'lga boshlashdan iborat. Masalan, «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida «Alloh taolaga ibodat qilishdan so'ng ota-onaga yaxshilik qilish ikkinchi vazifa» dsb ta'kidlanadi. Mazkur oyatlarda insoniy muomala qoidalari ham belgilangan:

- ota-ona hatti-harakatining farzandiga malol kelmasligi;
- ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shafqat qilish;
- ularning haqiga duo qilish.

«Qur'on» inson egallashi lozim bo'lgan barcha aqliy-axloqiy hulqlar, insonni kamolotga tariqat, haqiqat va ma'rifatga undovchi fazilatlar xususida so'z yurituvchi yagona asardir.

Imom al Buxoriy o'zining «Al adab al-Mufrad» («Adab dorchonpchapi») asarida Payg'ambarimizning eng sara hadislarini to'plagaga muyassar bo'lgan insondir.

Hadis arabcha so'z bo'lib, «hikoya», «xabar», «bildirish» degan ma'noni anglatadi. Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va u kishi tasdiqlagan ishlar Hadisga jamlangan. «Hadis» va «Sunnat» so'zlari bir xil ma'noni

anglatadi. Hadislar asosan Muhammad payg'ambarimizning vafotlaridan so'ng yozila boshlagan.

Hadislar - musudmon kishining kundalik hastida amal qidadsh an qoidalar haqida aytilgan muborak so'zlardan iborat.

«Hadis»- Qur'oni Karimdan so'ng turuvchi mukaddas manba bo'lib, uning 6 ta ishonchli to'plami mavjuddir.

«Islom axloqiga oid hadislar umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan axloqiy me'yorlardir. Ularda vatanparvarlik, odamiylik, xushhulqlik, ota-ona va qarindosh urug'larni e'zozlash, inson sha'ni, qadr- qimmatini oyoq osti qilmaslik, insonlarning bir-biriga o'zaro hamdard bo'lishi, zaiflarni himoya qilish, xotin-qizlarni hurmatlash, oilani muqaddas saqlamoqlik, halollik, poklik, do'stlik, sadoka!, ilm olish g'oyalari da'vat va targ'ib qilinadi».

Bugungi kunda har bir oilada tarbiya topayotgan farzandlarda, yuqorida qayd etib o'tgan barcha axloqiy xislatlarni tarkib toptirishda, hadislardan keng miqyosda, unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hadislar va ularda ilgari surilgay g'oyalarni bolalar ongiga singdirish tarbiyada ijobiy natijaga erishishda yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, hadislar asrlar davomida insonlarni poklikka, halollikka, vatanparvar bo'lishga, imon, e'tiqodli bo'lishga chorlovchi manba bo'lib xizmat qilgan.

Oila va oilada farzandlar tarbiyasini tashkil etish masalasi uytonish davrining ko'plab allomalarining ta'limiy-axlokiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Bular: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud az-Zamahshariy kabi ko'plab buyuk allomalardir.

Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida ta'lim- tarbiyaning pedagogik va pspxologik tomonlarini ilmiy asosda tahlil qilar ekan, farzandlar tarbiyasi ikki uslubda olib borilishini ta'kidlaydi, ya'ni: majburiy va ixtiyoriy. Uning fikricha, oilada tarbiyalanuvchilar ixtiyoriy ravishda barcha inson uchun zarur bo'lt an insoniy fazilatlarni egallashga intilmasalar, uni tarbiyachi va muallimlar to'g'rilik, haqgo'ylik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarga o'rgagish kerak deb izoh beradi.

Abu Rayhon Beruniy ijodida inson omili Abu Nasr Forobiy falsafasining bevosita davomi sifatida tarannum etiladi. Alloma jamiki insonlarni bilim olishga chaqiradi. Chunki ilm insoniyatni komillik sari yetaklashi, ilm insonni baxt saodatga erishishida muhim omil ekanligini e'tirof etish bilan birga inson hayoti va faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etishini alohida qayd etadi.

Abu Rayhon Beruniyning bizgacha yetib kelgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Minerologiya» kabi asarlarida ta'lim- tarbiya masalalariga oid qarashlariga keng o'rin berilgan. Alloma tarbiyani to'rtga bo'ladi:

1. Aqliy va axloqiy tarbiya.
2. Nafosat va mehnat (hunar) tarbiyasi.
3. Oilaviy tarbiya.
4. Do'stlik va vatanparvarlik tarbiyasi.

«Barcha ijtimoiy illatlar va tengsizliklarning asosida ilmsizlik yotadi. Ma'rifat hukm surgan joyda tengsizlik yo'qoladi» degan fikr alloma ta'limotining asosiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Beruniy oila va oilada farzandlar tarbiyasiga, oilaviy tarbiya asoslariga ham diqqat e'tiborini qaratib, o'zining fikrlarini, bayon etadi. Abu Rayhon Beruniy yoshlarni kattalarga hurmatda, kichiklarga doimo izzatda bo'lishni, ota-onalarni e'zozlagga, vatanni sevishtga. o'tmish avlodlari bilan g'ururlanishga chaqiradi.

Alloma o'zining «Minerologiya» asarida «Kimda kim o'z o'tmish avlodlari bilan g'ururlansa, o'sha avlodlar tirik, uning o'zi o'likdir ... yoki agar kishi o'zini o'zi yuksaklikka ko'tarmasa, ulug' suyakdarsiz bo'lmaydi» deb juda haqqoniy fikrni olg'a surgan edi.

Olim oila masalasiga ham e'tiborini qaratib, oila qurayotgan qizlarga o'zining ajoyib pandu-nasihatlarini meros qilib koldirgan. Uning har bir qimmatli o'gitlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay tarbiya jarayonlarida o'zining samarasini bermogda. Chunonchi, «Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlarga eshitsin, yarashmaydigan yoki eski libosda yoki yuzlarga aro berilmagan va sochlaring larsho'linmagan holda uning oldida o'tirma»

Alloma oilada farzandlarni yaxshi yoki yomon xulk egalari bo'lishiga asl sabab oilada olib boriladigan tarbiyadir deyish bilan oila tarbiyasining yagona maqsadga qaratilganligi va ota-oila a'lo, shblari

o'rtasidagi mushtarakligining tarbiyada ijobiy samara berishi borasidagi o'z qarashlarini bayon etadi.

Abu Ali ibn Sino - o'rta asrning buyuk tabibi, faylasuf olimi bo'lishiga qaramasdan, uni oila va oilaviy tarbiya masalalari, ayniqsa, oilada farzandlar tarbiyasiga qiziqishi katta bo'lgan. Uning ilmiy qarashlarida oila va oilada farzandlar tarbiyasi masalasi alohida o'rin olgan. «Tadbiri al-manozil» nomli asari ham aynai oila masalariga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Olim o'zining bu asarida oilada farzandlar tarbiyasida ota- onalarning vazifalari haqida chuqur mulohaza yuritadi.

Abu Ali Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida iisopii tug'ilgan onidan boshlab tarbiyalash lozimligini tibbiy nuqtai nazardan asoslab beradi va bu tarbiyani qay yo'sinda va qanday yo'nalishlarda olib borish kerakligini batafsil bayon qiladi.

Ibn Sinoning tarbiya masalalariga bag'pshlangap mux.im asarlaridan yana biri «Uy tutish haqida» gi asaridir.

Ushbu asarda inson uchun oila tutishning zarurligi, uning mohiyati va mazmuni, shuningdek, otaning farzandlariga bo'lgan munosabatlari, bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash. farzandini o'z hayotini ta'minlashga da'vat qilish kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

Sharq xalqlari madaniyati, ma'naviyati tarakkistiga hpssa qo'shgan buyuk allomalardan biri Yusuf Xos Xojio \ nch' "Qutadg'u bilig" («Saodatga boshlovchi bilim») asarini turkiy tilda yozgan bo'lib, alloma unda oila va oilada farzandlar tarbiyasini tashkil etishning turli jihatlariga batafsil to'xtalib o'tadi.

Yusuf Xos Hojib kishilarni axloqiy xususpyag.shrpgga k1:, guruhga ajratadi: ezgu (yaxshi) insonlar va essiz (yomon) insonlar.

«Biri ezgu, uni madh qildilar,

Biri yomon edi uni so'kdilar.

Kishi ezgu iom bilan olqish oladi, ko'rgin,
Nom chiqargan yomon o'lsa, qarg'ish topadi.
Ko'p sinadim, yomon (liq) qiluvchilar
Kundan-kunga (orqaga) ketaveradi, kuchi uzildi»

Yusuf Xos Hojib ezgu nom kishiga olqish olib kelsa, yomon nom esa qarg'ish keltiradi, deydi. Shunday ekan, ota-onalar o'z farzandlarini faqat ezgulik yo'lida xizmat kilishga, ezgulikka intilib yashaydigan insonlar qilib tarbiyalashga harakat qilishlarini o'qtirib o'tadi. Oilada bolalarni ezgulikka undashda birinchi muhim omil - bu bolalarda ilmga hamda bilim olishga rag'bat uyg'otishdir.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida vatanga muhabbatni eng oliy tuyg'u sifatida ta'riflaydi. Unish vagan haqidagi fikrlari «Vatanni suymak» bobida o'z ifodasini gapgan. Olim avvalo, «Vatan» tushunchasiga ta'rif beradi: «Vatan. Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vagani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar... biz Turkistonliklar uz vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, kumliq, issiq cho'llarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar» deb, boshqa yurtga hijrag qilganlari va umr bo'yi o'z vatani hijronida yashab o'tishini aytib o'tgan.

Barcha mutafakkirlarimiz o'z ijodlarida oila va oilada farzadlar tarbiyasiga katta e'tibor berib kelganlar. Ular bolalarga to'g'ri tarbiya berishda avvalambor ota-onaning o'zi to'g'ri tarbiya topgan bo'lib, namuna bo'lishi va shu asosda tarbiyada ijobiy natijaga tezroq erishish yo'llarini, vositalarini izlab topish zarurligini ta'kidlaganlar. Shuningdek, bolalarni chuqur ilm bilan qurollantirish orqali to'g'ri tarbiyalash bilan ularni vatanparvar bo'lib yetishishlarini ta'minlash mumkinligini bashorat etishadi.

Sharq mutafakkirlarining barcha pedagogik qarashlarini keng miqyosda o'rganish, ular qoldirgan ulkan merosning eng yaxshi jihatlarini oilaga, hayotga olib kirish, ulardan tarbiya jarayonida unumli foydalanish asosiy vazifamizdir.

Sharq mutafakkirlari qoldirgan boy didaktik masroflari mustaqillik mafkurasini yaratishda, bolalarimizning mafkuraviy dunyosini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

1.2 Oilada sog'lom dunyoqarashni shakllantirish pedagogik zaruriyat ekanligi.

Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi.

Qadim-qadimdan oila — muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, otanaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usini deyoqlaridir. Oilaga samimiy sadoqat bo'lmagan joyda, farzandlar oldida otana hurmati yo'q. Bunday xolatda na qarindoshlarga, na mahallaga va na Vatanga muxabbat tarkib topadi. Shu boisdan xam Prezidentimiz I.A.Karimov «Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash — bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor», deyda alohida kayd etganliklari bejiz emas.

Oila omilining mustahkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, oilaning sub'ektiv, ya'ni ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda, oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloq tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muxabbat omillarining oila muhitida amal qilishi tushuniladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov "Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyo'ligini ta'minlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni saqlaydigan, kelajak

nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir».

Oilaning jamiyatdagi muxim ijtimoiy institut sifatidagi o'rin xususida mutafakkirlarimiz ko'p ibratli gaplar aytishgai.

A.Fitrat yashagan davrda Sharq oilalariga G'arb turmush tarzi singdirila boshlagan edi. U o'zining «Oila yoki oilani boshqarish tartiblari» asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismopiy, aqliy va axloqsh! tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. «Millat taqdiri mana shu millat, vakillari yashagan oilaning xolatiga bog'liqdir...

Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakag vp mich.ma! xam shuncha kuchli va tartibli bo'ladi», deb yozadi u mazkur asarda.

Fitrat uz fikrini davom ettirib, «Agar bir mamlakat axolisi axloqsizlik va johillik bidan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatnint saodagi va \asi! sh;,b.chl ostida qoladi», deb yozadi.

Oila millat sharafiga yukori martabaga ko'taradigan mehr-muruvvat va madaniyat o'chog'i xam hisoblanadi. Mehnat e'tiboriga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlarning ya'ni, erkak va asliish uzaro lim/k.i^.-n.i^i yashay boshlashi, muhabbati, bir-birlarini, anglagan holda turmush kechirishi va ko'payish istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhimi, «uni ham iktisodiy, ham ma'paviy- axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir».

Oilaning mustahkamligi jamiyat va davlat barqarorligi bilan mantiqiy uyg'un xodisa sanaladi. Xalqimizgting uzoq yillik, murakkao tarixiy-madaniy tajribasi, mobaynida yuz bergan voqyea-hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash gendsnniyasini ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarida uchratamiz. Millatimiz boshiga tushgan achchik qismat dastavval oila tarbiyasidagi kamchilik okibati ekanini ma'rifat axllari yaxshi anglashgan. Bundan xalos bo'lishda oila tarbiyasi xal qiluvchi axamiyat kasb etadi, deb umid qilishgan. Fitratnin! «Oila yoki onlayn boshqarish tartiblari» asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi.

«Har bir millagnim saolzgi va izzapi.albagta. sh\ xalkmit ichkn intizomi va totluvligiga boglik. - lsb yozadi \, - tiichlik va yug.vdpk shu millat oilalariigii inppomsha gayanadi. Kasr.sh kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat \a\1 shuncha k\chli va muazzam bo'ladi». Bu muddao amalida, tabiiyki, oila boshligining ibrat alohida o'rin tutadi. Oila a'zolari o'rtasida uzaro xurma k mexr-\!p\ vg;- , va oqibat omillari soglom muhitini yaratali.

Zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida yakdillik. maksadlar birlig'ini yuzag'a keltiradi. Aks holda :zsa, ichdan smirilish. ma'navsh; inkiroz xolatlari yuz beradi, bu :zsa har qanday tashqn ziyondarda;- ;s\ galofatlirokdir.

Fitrat oilani millat manfaatiga xizmat qiluvchi, sh\ p_\ \ch; 1 tarbiyalovchi beshik ekanligini aloxida ta'kidlaydi. Oiladagi ijdpmoii foydali tarbiya esa jamiya gni mustaxkamlovchi omil bo'lib, uning \ :^m * harakatchanligi, ma'rifig ko\!iddp! a. . lp.; ,, millatning' umumiy sa'y-harakati va amali ko'p bulsa, kuch-kudra: k,. ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi», - deydi u va yurtdoshlarn d da'vat etadi. Tabiiyki.o'sha davrda xamma xam b\ np a!N' :ab yo'lda jonbozlik ko'rsatadig'an fidoiular!a iu.l os-rpllii a. siyosati esa milliy yakdillikning barcha ko'rinishlari rivojpb: . ' . kilgan. Shu boisdan ham Fitrat Vatanu mamlakatni dildan ssv\ .sha'ni sharafini ximoya qiluvchi fidoiy farzanddarni k\ p...; voyaga yetkazish lozim, degan fikrni asosdab beradi.

Fitrat jamiyat a'zolarining fidoiyo'ligi va onglndsh i \p; taraqqiyotga, el-yurt obodligig'a olib kelishiga ishongap. Fitra! X\ boshlarida odamlarni Turkistonda amal qilgan psjo.ch.pn, aqidalarni, mutelik va ianokandalikni inkor e!uvchp. ,1.a. l.l sog'lomlashtiruvchi kuchga eg'a bo'lg'an oilag'a yangicha bir qo'z oilap qarap:,, undaydi. Ota-onaning' birlamchi vazifasi - farzandini jamiyapa nas>,: teg'adig'an qilib xayotga tapyorlash. uni ongdi va x\ !psr :n■:'■ ■ ' n qo'shishdan iborat. «Xalqning harakat qilishi, davlatdmand bo'lishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xo'rlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, kul va asir bo'lishi - bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyaga bogliq», — deb biladi.

O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov aytib o'tganidek to'rtta ma'naviy-axloqiy negizlarga asoslanadi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik.

Mustaqil O'zbekistonni buyuk davlat darajasida taraqqiy etishi uchun jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish zarur. Zers^ ma'naviy kamol topgan insonlarga buyuk kelajak sari intiladilar. Ma'naviy yetuklikning eng muhim belgisi esa soglom dunyoqarash, sog'lom fikrlikdir.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, fuqarolarda xususan yoshlarda milliy mafkuraviy qarashni tarbiyalash, aynan bugungi istiklol sharoiti talablari borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-iktisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak»

Bu muqaddas g'oyalar millati va e'giquodidan qat'iy nazar yosh avlodning, har bir fuqaroning ongiga singdirilishi kerak. Bunday mas'uliyatli vazifalar albatta oila va oilada bola tarbiyasi muammosining dolzarbligini oshiradi. Bugungi yoshlarda milliy g'urur, milliy tuyg'u kabi tushunchalarni tarbiyalash vatanparvarlik muammosi bilan bogdiqligini har

bir o'zbek fuqarosi, farzandlari anglamog'i va unga o'z ongi, ixtiyori, hohishi va istagi bilan munosabatda bo'lmog'i darkor.

Oilada bolalarni milliy kadriyatlar asosida vataniarvarlik r\\ida tarbiyalashni keng amalga oshirish maqsadga muvofiq. Olalarni garoiyalash nafaqat oilaning, balki jamiyatning, ijtimoiy muassasalarning ta'sirida amalga oshadigan jarayondir. Farzandlarimizda milliy g'urur, iftixor qanchalik kuchli rivojlansa, ular kamoloti ham shunchalik mustahkam bo'dadi. Shuning uchun ham oila mavzusining har qachongiga nisbatan dolzarbligi oshib boraveradi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov hamda Respublika hukumati tomonidan o'tmish merosning o'rganilishi, milliy qadriyatlarining shakllanishi, oila tarbiyasi samaradorligini oshirish, oilada shaxsni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash, oila mustahkamligini ta'minlovchi omillar, vositalarni tadqiq etish masalalariga alohida diqqat qaratilayotganligi, bu borada ksssh k\shmchi pchg " borishga iisbatan nazariy yo'llanma bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda o'z o'rnini topayotgan, Respublika mustaqilligini mustahkamlash, Markaziy Osiyo mintaqasida notinchlik hukmron bo'lgan, xalqaro terrorizm hamda diniy ekstremizm xavfi hanuz mavjud bo'lgan, xorijiy noqonuniy diniy tashkilotlar, uyushmalar tomonidan Respublika yoshlari orasida g'ayriinsoniy g'oyalarni tarqatishga bo'lgan urinishning batamom bartaraf etish borasida harakat olib borilayotgan bir sharoitda oilada milliy qadriyatlar, ular mazmunida ilgari surilgan ezgu insoniy g'oyalar vositasida vagannarvar shaxsni tarbiyalashning bir butun tizimini yaratish, eng maqbul va samarali metodikasini ishlab chiqish, pedagogika nazariyasi va amaliyoti oldida turgan dolzarb vazifasidir.

Oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari, milliy qadriyatlarning ta'sirchan kuchi, shuningek, oila hamda ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida qaror topgan o'zaro hamkorlik imkoniyatlari oilada milliy qadriyatlar soglom dunyoqaragili vatanparvar shaxsni tarbiyalash borasida qulay pedagogik shart-sharoit mavjudligini ko'rsatmoqda.

Vatanparvar shaxs - vatan tuprog'i va davlat ramzlarini muqaddas deb biluvchi, ularni qadrlovchi yurt ozodligi, mustaqilligi hamda millat shah'ni, ornomusi uchun kurashuvchi, ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti va yutuqlaridan quvonuvchi, muvaffaqiyatsizliklaridan kayguruvchi, ijtimoiy burch mohiyatini chuqur anglovchi, mamlakat obro'-e'tiborini oshirish yo'lida mehnat qiluvchi, shuningdek, fidoiylilik, sadoqat, mardlik. jasorat, xalqparvarlik, baynalminallik, hamda xalq o'tmishidan faxrlanish va yurt iqboliga ishonch tuygulariga ega bo'lgai sub'skch lir.

Oilada milliy qadriyatlar asosida bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muayyan pedagogik tamoyillar asosida olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

1. Milliy qadriyatlar hamda ularda ilgari surilgai ilgor goyaltrt;p1 foydalanish asosida oila tarbiyasini tashkil etilishining ijtimoiy- g'oyaviy asosga ega ekanligi.
2. Mazkur jarayonning aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda maqsalning natijalanganligi.
3. Vatanparvar shaxsni oilada milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalashda tarixiylik (xalqning tarixiy tajribasi, ajdodlar namunasi asosida tarbiyalash).
4. Vatanparvar shaxsni oilada milliy qadriyatlar vositasida gariiyadashda vorisiylik (ajdodlar namunasi, boy hayotiy tajribasining) yosh avlod kamolotini ta'minlash yo'lida xizmat qilishi.
5. Oilada milliy qadriyatlar va ularda ilgari surshggan ilgor goyalarpan foydalanish asosida vatanparvar shaxsni tarbiyalashda bolalarnigp ssh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
6. Vatanparvar shaxsnn milliy qadriyatlar asosida garbiyalashga yo'naltirilgan oila tarbiyasining izchil, tizimli, uzluksiz hamda samarali tashkil etilishi.
7. Milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni oilada ^arbiya.kipdl oi.m - ta'lim muassasalari - ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik.
8. Milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni oilada tarbiyalashda oilalarga metodik yordam ko'rsatish.
9. Milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni oilada tarbiyalashda nazariy ma'lumotlar berish hamda amaliy faoliyatni uyushtirish o'rtasidagi uzviylik.
10. Oilada milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni tarbiyalashda maqbul, samarali vositalardan foydalanish.

Oila tarbiyasini tashkil etipq milliy qadriyatlar hamda ularda ilgari surilgan ilgor g'oyalar asosida barkamol shaxsni shakllantish, vatanparvar shaxsni tarbiyalash masalalariga doir adabiyotlarni uqib o'rganish orqali oilada milliy qadriyatlar asosida vaganparvar shaxsni tarbiyalash quyidagi andoza vositasida amalga oshiriladi degan xulosaga keldik:

- oila tarbiyasining milliy qadriyaglar va ular goyadari asosidp tashkil etilganligi;

oilada milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni arbiyalash borasida oilalarga metodik yordamning ko'rsatilayotganligi;

- oila tarbiyasida yetakchilik rolini bajaruvchi shaxslariish midliy qadriyatlar va ular mazmunidan xabardorligi, vatanparvarlik tushunchasi mohiyatini to'g'ri talqin eta olish borasida muayyan ma'lumotlarga egalik darajasi;

oilada milliy qadriyatlar asosida vatanparvar shaxsni tarbiyalashda oila - ta'lim muassasalari - jamoat (ijtimoiy) tashkiloglar o'rtasidagi mustahkam aloqaning qaror topganligi;

aniq maqsadga yo'naltirilgan oila tarbiyasining izchil, uzluksiz, tizimli va samarali tashkil etilganligi.

1.bob bo'yicha xulosa.

Milliy mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston Respublikasida iedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirildi, milliy pedagogika qonuniyatlari chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim berish va uni garbiyalash boras pd.;

G'arb tajribalari, yutuqlaridan milliy- etnik xususiyatlarga tayangan xolda foydalanish, ularni o'zaro uyg'unlashtirish borasidagi xarakat yuzaga keldi.Bu yo'lda bir qator ibratli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Resnublikasi Prezidsnti I.A.Karimov oilani 1arii>1 o'chog'i" deya e'tirof etib, oilada farzandlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash milliy tarbiya samaradorligini ta'minlashning muxim tamoyil ekanligiga e'tiborni qaratdi.Mazkur goyalar, shuningdek, davlat siyosatini yorituvchi manbalarda ham o'z aksini topdi. Xususan, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida oilaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqyei, uning demokratik va insonparvarlik g'oyalariga asoslanuvchi jamiyatni barpo etishdagi roli pnik ifodalab berilgan.

II. Bob. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA OILAVIY TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI.

2.1. Oilada ma'naviy sifatni shakllantirish usullari va farzand tarbiyasida ota-ona ibrati, namunasi .

Oila mafkuraviy tarbiyasiing eng muxim ijtimoiy omillaridan birndir. Oila -jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'gigi, o'ga ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muxit - sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustaxkamligi, farovonligini, o'zaro hurmag va axillikni ta'minlash - milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

Oila muhitida tashkil etilayotgan tarbiyaviy faoliyatning milliy tarbiya g'oyalariga asoslanishi shubxasizdir. Milliy tarbiya deganda ham milliy, xam zamonaviy talablarga mos an'ana va tajribalar vositasida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni tushuniladi.

Oilada oilaviy tarbiyani jarayonida tarbiya asoslaridan o'rinli foydalanish, ota - onalarning farzandlar tarbiyasida etnopsixologik va pedagogik g'oyalarga tanishlari o'sib kelayotgan avlodda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalashda muhim omil xisoblanadi.

Oilada oilaviy tarbiya jarayonida ota - onalarning samarali metodik yondoshuv asosida ish ko'rishlari farzandlarda" milliy mentalitetga xos sifatlarni tarbiyalash, milliy tarbiya asoslarini avloddan - avlodga uzatish imkonini beradi.

an'analarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ma'naviy — axloqiy qadriyatlar shaxslararo munosabatlarda xam ustunlik kasb etishi darkor.

Mamlakatimizda ko'p qirrali isloxotlar amalga oshayotgan bir paytda maxalla jamiyat uchun ishonchli tarbiyaviy tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim. Buning uchun yaqin istiqbolda "Oila - maktabgacha ta'lim muassasalari - umumiy o'rta ta'lim maktablari - oliy [achpm muassasalari - ilmiy - tadqiqot

institutlari" shaklidagi ilmiy-ma'rifiy tizimni vujudga keltirish yo'ldan borish kerak.

Ana shundagina istikloliy e'tiqodli, zamonaviy yuksak texnologiyalarda ishlay oladigan, bozor konuniyatlariga \os ya;;' • >•. biladigan yosh avlodni yetishtirishimiz mumkin.

Hozirgi davr yoshlarimiz dunyoqarashini milliy istiqlool ruxida shakllantirishni kat'iy talab qilmoqda. Milliy pedagogikamiz asoschilaridan biri Abdulla Avloniy szganidek,

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”. Oilalarda milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish jamiyatimizda soglom muxitni saqlashda ulkan axamiyatta ega ekanligini anglashimiz darko[']).

Yurtiga, vataniga muxabbat, insonparvarlik tuygulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Shu bois milliy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, yoshlarni mustakil O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari etib tarbiyalash masalasi oilavii tarbiya soxasidagi amaliy ishlarning asosiy yo'nalishini tashkil egishi zarur. Kattalarni xurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan kat'iy ttazar odamlarga xayrihoxlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga xamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasida1'y munosabatlarning me'yori hisoblanadi. Ular o'zbek xalqining ming yillar davomida to'plagan, necha - necha avlodlarning tarbiyaviy tajribasi nsgizida yuzaga kelgan.V diyoriga, o'z Vataniga mehr-muxabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida xurmat - extirom O'zbekiston fuqarolariga xos fazilatlar sanaladi.

Sharq allomalarining tarbiya nazariyasi va metodlariga oid bsbaxo merosi avlodlarning ma'naviy ruxiy ongi va gurmush tarzini shakllantirishda muxim o'rin gutgan bo'lib, butungi kunda xam o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Oila tarbiyasi -jamiyat tarbiyasining negizi.Ko'p millatli Uzbekiston axolisini katta oilaning a'zolari deb tushunish mumkin. Oilada mustahkam tartib, uning a'zolari o'rtasida o'zaro xurmag shakllanmagan bo'lsa, xar bir a'zo o'z burchini

vijdonan ado tgmasa, bir - biriga nisbatan o'zaro yordam va mexr-oqibat ko'rsatmasa jamiyat taraqqiyoti ta'minlanmaydi, ijtimoiy, iqtisodiy xamda madaniy rivojlanish ko'zga tashlanmaydi. Oila xuquqiy va ma'naviy - axloqiy asoslar negizida barpo etiladi, demokratik tarbiya negizlariga asos soliiadi. Oila muxgpida >pp p avlodlarning ma'naviy - axloqiy talab - extiyojlari qaror topadi, oilaviy an'ana va qadriyatlar shakllanadi. Shu sababli o'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oila a'zolari, qarindosh-urug'lari, birodarlari xamda qo'shnilarining sixag -salomapjgi, omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qitshshni birinchi o'ringa qo'yadi.

Oilani eng muxim qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etish, ota - ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davla1, uning asosiy ramzlari, Respublika Irezidentiga nisbagan xurma> ko'rsatish, sadoqatli bo'lish, insonlarga xurmat, ishonch, shaxs xotirasini ulug'lash, iymonli bo'lish, erkinlikka intilish - zamonaviy milliy tarbiya mazmunida o'z ifodasini topgan asosiy goyalar bo'lib, anglangandek. ularning ko'lami keng, Har bir inson o'zini muayyan xalqning farzandi dsya xis etganda, mazkur xalqning istiqboli, ozodligi, farovonligi yo'lida mexnat qilib yashagandagina milliy ma'naviyat shakllanadi. Shuning uchun xam o'z xalqi va Vatanidan yiroqda bo'litshti ogir qabul kiladp.

Milliy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularning inson qiyofasida namoyon bo'lishi u tomonidan amalga oshirilayotgan xatti - harakatning mazmuni bilan tavsiflanadi, Ong va faoliyag birligi,

uzviyligida ko'zga tashlangap sifatlar barqaror x\s\yepyam :. shaxsning moddiy farovonlikka intilish yo'lidagina faoliyat yuritishga yo'l qo'ymaydi, ma'lum fojialar ro'y bergan vaqtda omon saqlab, og'ir damlarda irodasini mustaxkamlaydi.

Ana shunday xayotiy sinovlardan muvaffaqiyatli ul'Tai kipshlar kelgusi avlodlar uchun nbrat ko'rsatadilar. Jaxonga mashhur Muxammad Muso al — Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termnziy, Az- Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Axmad Yassaviy, Paxlavon Mahmud, Muhammad 1 aragay Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab allomalarning ma'naviyati nixoyatda boydir. Ular o'z

umrlarini xalq xizmatiga bag'ishlaganlar. Buyuk ajdodlarning nomlari xalk xotirasida kayta-qayta tiklanitti tabiiy xol. albatta.

Bola turmush tarzi, urf —odatlar, an'analar, oila a'zolarining muomala madaniyati, shuningdek, etnik xususiyatlarni aks ettiruvchi liboslari, ro'zg'or anjomlari, xatto taomlar yordamida milliy karappar mohiyatini o'zlashtiradi. Bola ulg'aya borgach, uning tarbiyasida asosiy o'rin tutuvchi oila muhiti ijtimoiy muxit bilan uyg'unlasha boradi. Endilikda uning ongi, dunyoqarashini shakllantirishda oila bilan birga jamoatchilik xam faol ishtirok etadi. Jamoatchilik ipggiroki asosida bola mavjd sub'ektlarning ta'siri yordamida jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy - axloqiy xamda xuquqiy me'yorlarning mohiyatini o'zlashtira boradi. Ijtimoiy faoliyat ko'lam hamda munosabatlar doirasining kengayishi, unda goyaviy-siyosiy, estetik, iqtisodiy, ligienik bilimlarni xam p\la o'zlashtirishga nisbatan xayotiy extiyojning qaror topishiga zamin yaratadi.

Bolalar ota - onalariga ikki jixatdan o'xshaydilar. Ular qu yi d agi l ar dir:

1. Irsiy o'xshashlik - o'g'il yoki qiz biologik xususiyatlari (gavdasining tuzilishi, ko'zi, koshi, bo'yi, sochi va boshqa jihatlari)ga ko'ra otasi yoki onasiga xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon etadi. Shunday xolatlar bo'ladiki, atrofdagi kishilar ayrim bolalarni ilk bor ko'ragaida (uiipg ogasi ski onasini taniydigan kishilar bo'lsalar) ularga "Falonchining o'gli (yoki qizi) emasmisan?" deb savol beradilar.

2. Psixologik, ma'naviy - axloqiy jixatdan o'xshashlik ota-onaga xos bo'lgan ruxiy xamda ma'naviy - axloqiy sifatlar ping bola qisfasida aks etishi (masalan, vazminlik yoki xatti - xarakatlarni bajarishdagi yengillik, kamgaplik yoki sergaplik, jur'atlilik yoki jur'atsizlik, mexnatsevarlik yoki dangachalik, farosatlilik yoki farosatsizlik va boshqalar Psdagogika fani goyalaridan yaxshi ma'lumki, bola xayotining asosii qislt oida muxitida kechadi. Shu bois u oilaviy munosabatlar jarayonida ota - onasining odatlari, muomala madaniyati, gapirish metodi, ma'naviy - axloqiy yondoshuvlarining moxiyatini chuqur anglaydi va aksariyat xolatlarda andoza olgan holda ularni o'zlashtiradi. Ota-ona iorap1 sifatida namoyon bo'luvchi mazkur omillarga doimiy ravishda duch kelish ularning bola

xarakteriga xos me'yorlarga aylana boradi. Shunga ko'ra, 6 yoshli bolani shartli ravishda ota - onasining «qayta rivojlanayotgan» kichik nusxasi deb atash mumkin. Agar bola faol tarzda ota onasining tarbiyaviy namuna asosida tarbiyalansa, o'gil bola - otasining, qiz bola esa onasining xarakteriga xos bo'lgan ijobiy yoki salbiy sifatlarini o'zlashtiradi. Ayni o'rinda xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan kiyinchagi maqollar fikrimizni yanada mustaxkamlaydi: "Bola ko'rganini qilar, ota - bilganini", "Otadan - o'g'il, onadan - qiz", "Qiz bersang otasiga qarab ber, qiz olsang onasiga qarab ol", "Daraxtiga ko'ra- mevasi, Ota - onasiga ko'ra - bolasi".

O'g'il-qizlarning tarbiyasida oila emas, aksincha, ijtimoiy muxit yetakchi o'rin egallasa, ularda ota - onalariga xos bo'lgan sifatning takrorlanishi ro'y bermaydi. Balki, tashqi muxitda kimning ta'siri kuchli bo'lsa, bola ana shu sub'sktga xos sifatlarini o'zlash 1 iradi. III; oosh., ,1, sh , sog'lom muxit qaror topgan oilada o'ssa-da, salbiy mazmunga ega tashqi ta'sirlar ota-onalaridan farqli ravishda bolada salbiy sifatning shakllanishiga olib keladi. "G'ayratlining bolasi tanbal bo'lar", "Oknn bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", "Odam tutilib yomon bo'lmas, ulgayib yomoi bo'lar", "Kozonga yondashsang qorasi yuqar, yomonga yondashsang yarasi" kabi maqollar yuqorida qayd etilgan fikrning yorqin isbotidir.

Tarbiya tushunchasi «parvarish qilish», «o'rgatish», «mexribonlik ko'rsatish», «ko'z-quloq bo'lish» xamda «ximoya qilish» kabi ma'nolarini anglatadi. Oilaviy tarbiyaning pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi yosh avlodning xar tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muxim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Burgut o'z bolasini uchishga qanday o'rgatadi? U palaponi temirkanot bo'lgach, olib yuksaklikka ko'tariladi va tashlab yuboradp Bupda xam instinktiv tavrbiyaviy ma'no yashirin. Maqsad ezgu - palaponni uchishga o'rgatish. Agarda temirqanot burgutcha, toshga urilib chilparchin bo'lish xavfi tugilsa, ona burgut yashin tezligida pastdan paydo bo'lib, uni ilib oladi. Uchishni o'rgatish, mexribonlik va ximoya yosh burgutcha mustakil uchib, ov qilishni o'rganmaguncha davom etaveradi.

Ota-onalarning farzandlariga bo'lgan ijobiy munosabatini ifodalovchi talablar. Bular- iltimos, ishonch, ma'qullashdir. Ayni o'rinda ularni ijobiy talablar deya nomlash mumkin.

Ota - onalarning bolalarga bo'lgan munosabatini yaqqol ifodalovchi hamda farzandlarni muayyan faoliyatga ragbatlantiruvchi munosabatlar mohiyatini yorituvchi talablar.

Bular - maslaxat, sha'ma, shartli talab va o'yin shaklidagi talabdir. Bolalarning u yoki bu axloqiy xislatlariga salbiy munosabatni namoyish etuvchi talablar. Bular — ishonchsizlik bildirish va do'q qilishdir. Ularni salbiy talablar deb atash mumkin. Iltimos metodi oilada bevosita talabning eng ta'sirchan va tez-tez ishlatiladigan shakllaridan biri. U ota - onalar bilan bolalar o'rtasidagi samimiy munosabatlarga tayanadi va ularning xamkorligiga erishish vositasi xisoblanadi.

Iltimos qilish muomalalanish' boshka churlari. ksh :i\ . m ; qiladiki, faoliyatni tashkil etishda bola mustaqil xarakat qiladi. Iltimos shunday oxangda bayon etilishi kerak-ki, bola so'ralayotgan xarakatni majburan emas, balki o'z ixtiyori bilan bajarishi lozimligini anglasin, Shuni xam qayd etish zarurki, iltimos o'rgok.larcha \ shro s[).la\; k .-- , turtki beradi.

Ishonch bilan talab qilish - eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U bolaga o'zining oilada muayyan o'rni borligini anglash xamda oila manfaatlari yo'lida mehnat qilishi maksadga muvofik ekanligini xis ki.lish.\ :arni: ishonchini oqlashga intilishga yordam beradi. Aksariyat holatlarda ishonch bilan talab qilish bolani ancha murakkab, mas'uliyatli, ayrim vaziyatlarda faxrli topshiriqni bajarishga yo'naltiriladi.

Bunda shuni eslatib o'tish kerakki, ishonch talabning faqat x\s\siy metodgina emas, balki, eng avvalo, bolalarga bo'lgan munosabat mazmunini anglatuvchi tamoyildir. Talabning mazkur ko'rinishini amalda qo'llashda me'yorga rioya qilish, bolaga ishonchni ta'kidlayverish emas. balki \ ' tomonidan topshiriqni ongli amalga oshirilishi muxim ekanligini sdda tutish kerak

Ma'hullash — muayyan sharoitda bolalar faolliyatining kuchli omiliga aylanadi. Bola tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan faoliyatni ma'qullash kelgusida

uning ijtimoiy faolligini oshirish ko'rsatkichlar biri bo'ladi. Shuningdek, farzandlar ota-onalarining fikrlarini qadrlasalar, ma'qullash yanada samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zan o'smirlar ma'lum ishni bajarishda xarakterliklari: onalari tomonidan ma'kullanishiga nisbatan ehtiyoj sezadilar. Ma'qullash ularda o'z kuchiga ishonch uygotib, bundan keyingi intilishlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Ma'qullash bolani quvontiradi, tabiiyki, u ana shu quvonchni o'z muvaffaqiyatlari bilan qiyoslab ko'radi. 1 Vaqt o'tishp o'ldap faoliyatda erishilgan muvaffaqiyatdan qoniqishning o'zi amaliyotdagi eng kuchli omil bo'lib qoladi.

O'git bolaga yo'l —yo'riq ko'rsatishdan iborat bo'lib, u shu xatti - harakat, amaliy vazifani ijobiy hal etish borasida-bolaning mustakil ravishda qaror qabul qilish uchun ota-onalar tomonidan ko'rsatilgan amaliy tavsiya sanaladi.

Iltimos singari maslahat xam boladan muayyan faoliyat shu xatti - harakatni amalga oshirishni majburiy ekanligini anglatmaydi, ushbu vaziyatda bola tanlash xuquqiga ega bo'ladi. Tarbiya jarayonida maslahat metodidan foydalanish bolada ishga ongli munosabatni shakllantiradi. Bundan tashqari, ota - onalarni do'st sifatida qabul qilishlariga imkon beradi. Ota - onaning obro'si atroflicha bilimlarga, katta xayotiy tajribaga, mahoratga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat-bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yul-yurik "»mps balkm ko'pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Maslahat berish yana shunisi bilan foydaliki, u bolalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa, ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelganda ota - onalari bilan maslahatlashishga o'rgatadi. Ota - onalar bolalarpshep xarakterlarini qadrlar ekanlar, ayni vaziyatda ularda kichik yoshdagi o'rtoqlariga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Sha'ma silish - bolalarni muayyan xatgi xarakter ragbatlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalardan biri. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan, shuningdek, moyiyati ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartmalaridir. Tajribali ota - onalar sha'ma qilish metodini qo'lla! anlarida aksariya I xola! larla k\ » tikib qarash, qoshlarini xarakterlantirish, "sirli" savolni berish bilan kifoyalanadilar. Ushbu o'rinda "O'tgan kunlar" romanida Yusufbek

Hojining o'g'li Otabekka: "Hamma narsaga yetgan akling shu narsaga kolganda nega-oqsaydi?" degan sha'masini ksltirish mumkin. Muayyap sharopda sha'ma iltimos, talabning "yashirin" vazifasini bajaradi.

Shart metodi shundan iboratki, bola uchun yokimli bo'lgai bprol) faoliyat turi yoqimsiz yoki qiyin faoliyat uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. "Darslaringni qilsang - o'ynagani borasan" kabi murojaat so'z yuritilayotgan metodning yorqin ko'rinishidir.

Shartdan foydalanilganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyashi tashkil etishga sarflangan kuch (jismoniy yoki aqliy) evaziga «mukofot» sifatida taklif etiluvchi faoliyat o'rtasidagi aloqa ko'zga tashlanadi. Aks holda bolalarda shartdan o'z manfaati yo'lida foydalanish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda talab ota-onalar tomonidan emas, aksincha, bolalar tomonidan qo'yiladi, ya'ni, "Bizning futbol o'ynashimizga ruxsat etsangiz, uyni yigishtirib chiqamiz" va xokazo tarzida.

Shart ko'yish bolalarning xulq atvorlari, ularnish kizikish mayllarini yaxshi bilish, ularning individual qobiliyatlari va imkoniyatlari darajasini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu usulni xam boshqa metodlar kabi suiiste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklidagi shart odatda bolalar uchun qiziqarli bo'lmagan, balki zerikarli mashg'ulotlarni tashkil etishga to'g'ri kelganda, shuningdek, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida qo'llaniladi. Bolaning u yoki bu xarakatlariga salbiy baxo berish, uniig salbiy odatlarini bartaraf etish xamda zararli xatti — harakatlarining oldini olish maqsadida sorala'i metodidan foydalanish muxim axamiyatg'a eg'a. Uning yordamida ijobiy xulq - atvor rag'batlantiriladi. Bunda xushmuomala murojaat qilish zarurdir.

Qoralash metodini uzluksiz ishlatish, " ayniqsa, muayyan bolag'a nisbatan qo'llayvermaslik kerak. Zero, bunday holda bu metod o'zining ta'sirchanligini yo'qotishi yoki bolada o'z imkoniyatlariga ishotchsizlttknin! qaror topishi uchun zamin yaratishi mumkin. Pedagogik texnika talablariga muvofiq qoralash metodini yumshoqroq oxangda aytilgan ta'na va ginadan gazab va jaxlning paydo bo'lishig'a qadar oraliqda qo'llash mumkin.

2.2. Oilada milliy tarbiya shakllantirish metodlarini o'rganish va takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari.

Bola tug'ilib oq ijtimoiy munosabamarnish 1:p,! n]¹...!!

Bu jarayon tabiiy ravishda davom etadi. Shu sababli bolaning tabiiy ehtiyojlarini qondirishga asosiy e'tibor qaratib, "Bolam maktabga borguncha o'ynab qolsin, kuchga to'lsin, soglom o'ssin, ma'naviyatni maktabga borganda o'rganar", deb o'ylaydigan ota-onalar yangilashadilar.

Chunki oilaning bolada milliy odobni mumkin qadar ertaroq tarbiyalay boshlash uchun uning ixtiyorida katta imkoniyatlari bor. Ota-onalar farzand tarbiyasini tashkil etishda jamiyat oldida xam javobgardirlar. Har tomonlama yetuk farzand tarbiyalash sha-oshshir asosiy, majburiy burchidir.

Oilalar shu imkoniyatlardan mumkin qadar yaxshiroq foydalanishi kerak. Oilada madaniy odatlarni tarbiyalash uncha qiyin ish emas, lekin buning uchun ota-onalar, farzandlarida milliy odobni shakllantirishni o'zining muxim vazifasi deb xisoblashlari kerak.

Ota-onalarning o'zlari gazeta, kitob o'qimaydigan, san'at, madaniyat, ma'naviyatga qiziqmaydigan oilada bolani madaniyatli kilib tarbiyalash juda qiyin ish. Bunday xollarda ota-onalar madaniy tarbiya berishga xar qancha zo'r bersalar xam, ularning bu xarakatlarida qalbakilik va sun'iylik bo'ladi, bola buni darxol payqaydi.

Milliy odob tarbiyasi ongli ravigada tagakil qilingan ma't/m bmr reja, to'g'ri metod va nazorat bilan birga olib borilgan taqdirdagina foydali bo'ladi. Bu juda erta, bola savodga o'rganmasdan ancha oldin, bola endigina yaxshi eshita oladigan, ko'ra oladigan, uncha-muncha gapira oladigan bo'lgan vaqtdan boshlanishi kerak.

Ezgu goyalarni targib etuvchi xikoya bolaning ma'naviy kamoloshni ta'minlashda muxim o'rin tutadi. Shu bois xar bir oilaning kitob javonida ertaklar to'plami bo'lsa juda yaxshi bo'ladi. Keyingi vaqtlarda

O'zbekistondagi nashriyotlardan ko'pgina qiziqarli, ezgu goyalarni targib etuvchi to'plamlar chop etildi. Yosh bolalarga aytib beriladigan ertaklarning ko'pini qisqartirish, tilini o'zgartirish, ertakni to'la tushunarli qilib berish kerak.

Ertakni tanlay bilish katta axamiyatga ega. Maktabgacha garbiya yoshidagi bolalarga devu-parilar, shayton, yalmog'iz kampir, alvasti, ajina, suv parisi va shu kabilar gapiriladigan -ertaklarni aytmaslik kerak. Bunday ertaklarni katta yoshdagi bolalarga tavsiya qilish mumkip, negaki ular bu vaqtda anchagina bilim olgan bo'ladilar va afsonalarga ishonavermaydilar. Bunday bilim ularning ertakdagi turli-tuman devu parilar, yalmog'iz kampir va umuman boshqa ana shunday baxaybat maxluqlar ertakka atayin kiritilgan obrazlarga ekanligini, b\ obraiarda insonga yomonlik sog'inuvchi yod g'oyalar ifodalanganligini tushunishlariga imkon beradi. Kichik yoshdagi bolalarga esa devu parilar va boshqa shu kabi obrazlari haqiqiy bor obrazlar bo'lib tuyilishi, bolanipg xayoliga g'ul-g'ula va daxshat solib, uni chalkashtirib yuborishi m\ mkin.

Yosh bolalar uchun eng yaxshi ertaklar xayvonlar xakidagi ertaklardir. O'zbek xalq ertaklari xazinasida bunday ertaklar juda ko'p va ular juda yaxshi ertaklardir. Xuddi shuningdek, O'zbekistondan boshqa xalqlarda xam yaxshi ertaklar ko'p. Bola katta bo'la borishi bilap kishilarning bir-biriga munosabati haqidagi ertaklarga ko'chish mumkin. Afandi xaqida ko'p qiziq dostonlar bor, ammo ulardan odamni g'irt axmok qilib ko'rsatmaydigan ertaklarni tanlamoq kerak. Yaxshi kishilar yoki bolalar xalok bo'lib ketadigan kayg'uli ertaklarni aytib berish kerak emas. Umuman aytganda, bolani xarakatga undaydigan, o'z kuchiga ishonch, xayotga ishonch bilan qarashga odatlantiradigan ertaklarni aytib berish ma'quldir. Yordamga muxtojlarga xayrixoxlik ularni notavon va ojiz ki';:;:g'!' 'ch-tasavvur qilishga aylanib ketmasligi kerak. Zulmning daxshatli xolatlarini tasvirlovchi ko'rinishlarni katta yoshdagi bolalargagina ko'rsatish mumkin.

Kitoblarni sotib olishda yirik xarflar bilan chop etilgap, rasmlari ko'p xamda mazmuni tushunarli bayon etilganlarini olish kerak. unday kitoblar bolalarda o'kishga bo'lgan kiziqishni uyg'otadi, shuningdek, savod chiqarish yo'lidagi muayyan kiyinchiliklarni yengiptga yordam beradi.

Savod o'rgatishdan bolalik xayotining ikkinchi davri - o'qish va bilim orttirishga bag'ishlangan davri boshlanadi. Bu davrda bola xayotida maktab eng muxim o'rin oladi, ammo bundan aslo, ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalash vazifasipi unutib,

faqat maktabgagipa tayanishlari mumkip.degan ma'no chiqmaydi. Aksincha, otalarning oiladagi madaniy tarbiya ishlari, xamma oila a'zolarining madaniy muomalasi, xuddi shular bolaning maktabdagi o'qishi uchun, o'qishining sifati va g'ayrat bilan o'qishi uchun, o'qituvchilari, o'rtoqlari va butun maktab tashkilotlari bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Соғлом турмуш тарзини шакллантириш масалалари

Бугунги кунда мамлакатимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш масалаларига жуда катта эътибор берилмоқда. Бу эса ижтимоий ҳимояга мухтож oilаларда ҳам соғлом турмуш тарзини яратиш бирдек зарур эканлигини кўрсатади.

Мамлакатимизда Тошкент давлат маданият институти, Самарқанд давлат университети, Фарғона давлат университетларида замонавий мутахассислик бўлган ижтимоий иш ходимлари тайёрланади. Тайёрланаётган ижтимоий иш ходимлари ўзларининг ҳуқуқий, сиёсий, иқтисодий, маданий, психологик билимлари билан ижтимоий ҳимояга мухтож oilаларга ёрдам бериш билан бирга уларнинг соғлом турмуш даражасини шакллантиришда ҳам кўмаклашади.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Конституциясини мукамал билишлари ва конституция асосида қабул қилинган oilа, меҳнат, фуқаролик, жиноят кодекслари, Президент қарор ва фармонларини, Олий Мажлис қонунчилик палатаси депутатлари томонидан қабул қилинган қонунларни изчиллик билан жамиятга тадбиқ қилиш ва уларни тарғиб этиш ҳам ижтимоий иш ходимларининг энг зарур вазифаларидан биридир.

Демак, ҳар бир ижтимоий иш ходими ўз ҳуқуқини аниқ равшан билиши, улардан оқилона фойдалана олиши, уларни эъзозлаши ва ҳимоя қила билиши лозим. Чунки, ижтимоий иш ходимлари доимо халқ билан ишлайдилар, уларнинг муаммолари, ўй фикрлари ва қарашлари билан ўртоқлашдилар.

Халқнинг ижтимоий ҳимояга ва ижтимоий ёрдамга мухтож қатламларини барча мушкулларини енгиллаштиришга кўмаклашадилар.

Шундай экан, бундай масъулиятли вазифа ходимлари асосий эътиборларини жамиятнинг кичик, шу билан бир қаторда ўта муҳим бўлаги бўлган оилага қаратишлари лозим. Чунки, оила ҳам кичик бир жамият ҳисобланади. Ривожланаётган давлатлар қаторидан жой олган мамлакатимизнинг юксалишида бундай кичик жамиятларнинг ўрни бекиёсдир. Соғлом ва мустаҳкам оилаларни ташкил этишда оиладаги болаларни тарбияси муҳим ҳисобланади. Ўзбекистон келажагини юксалтириш ва юртимизнинг довуғини бутун жаҳонга танитиш бугунги ёшлар, яъни баркамол авлоднинг кўлида эканлигини унутмаслигимиз керак. Бугунги кунда мамлакатимизда маънавий дунёқараши кенг бўлган зеҳнли, ўқимишли ёш авлод тарбия олаяпти десак, хато қилмаган бўламиз. Ҳақиқатдан ҳам бундай ёшлар юртимизда кўплаб топилади.

Шунингдек, орамизда жиноятнинг нотекис йўлларида адашиб, экстремистик гуруҳларга қўшилиб, гиёҳвандлик, алкоголизм ботқоғига ботиб, бу дунёда нима учун яшаётганини, қимматли ҳаётини мақсад-мазмунини, унутиб қўяётган ёшларимиз ҳам борлигини эсдан чиқармаслигимиз лозим. Бундай шахслар билан ишлаш ҳам ижтимоий иш ходимининг касбий вазифасига киради.

Доно халқимизда бир нақл бор ҳар қандай касални даволагандан кўра унинг олдини олган афзал дейилади. Демак, ёш авлодни бундай тубан йўللарга кириб кетишларига, уларнинг ижтимоий ҳаётида муаммоли вазиятларнинг юзага келишига йўл қўймаслигимиз керак.

Демак, ҳар бир ота-она оиласида соғлом турмуш тарзини яратишни ўз олдига мақсад қилиб қўйсагина, фарзандларининг бегона йўлга кириб кетишини, ҳар хил жиноий гуруҳларга қўшилишининг олдини олишга ҳаракат қилади.

Шунингдек, оилада соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ва ота-оналарга, ижтимоий ҳимояга мухтож фуқароларга ёрдам бериш ва уларни

амалга оширишда ижтимоий иш ходимларининг ҳам алоҳида ҳиссаси борлигини таъкидлашимиз зарур.

Оила, маҳалла-таълим-тарбия тизими сифатида

- [sarvarchik](#) номли блог

ОИЛА, МАҲАЛЛА-ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ СИФАТИДА

Маънавиятнинг пойдевори бўлган ахлоқ ва одоб, илму маърифат, имон ва эътиқод, дунёқараш ва мафкура аввало оилада шаклланиши ҳеч кимга сир эмас. Шундай экан ҳар қандай жамиятнинг ядроси, пойдевори бўлган оиланинг мустаҳкамлиги унинг моддий ва маънавий жиҳатдан таъминланганлиги, фаровонлигининг жамият ва давлат томонидан кафолатланганлиги келажак авлод тарбиясининг зарурий шarti бўлиб қолаверади. Юртимизда йилларга ном бериш удум бўлиб, дастлаб 1998 йил мамлакатимизда “Оила йили” деб, 2012 йил “Мустаҳкам оила йили” дея аталиши мамлакатимизда оила мустаҳкамлигига бўлган эътиборнинг бениҳоя катта эканлигидан далолатдир. Оила соғлом экан – жамият мустаҳкам, жамият мустаҳкам экан – мамлакат барқарордир. Маҳалла – инсонни жамият билан уйғунлаштирадиган ҳамда шу руҳда тарбияладиган энг катта саховатли гўша ва бекиёс Ватандир. Мустақиллик шарофати туфайли қўшничилик ва маҳаллачилик анъаналари янги руҳда шаклланиб, оилавий маиший муносабатларни мустаҳкамловчи ҳамда барча тўй-ҳашамларда, маъракаларда ҳамдард, камарбаста бўлиб, ўзаро ёрдам бериб қўллаб-қувватлашда муҳим рол ўйнамоқда. Маҳаллачилик катта-кичикни ҳурмат қилиш, ёши улуғларни эъзозлаш, оилавий муносабатларда аҳилликни сақлаш каби фазилатларни назорат қилишда етакчи ўринда туради. Зеро, ҳар бир ўзбек фарзанди дастлабки тарбияни маҳалладан олади. Таълим-тарбияни инсонпарварлаштиришнинг марказий масаласи ёшларда ор-номусни, ватан ва халқ олдидаги масъулиятни, юксак ахлоқ ва фуқаролик сифатларини ҳамда маънавий-руҳий фазилатларни сингдиришдан иборатдир. Маҳалла, оилада соғлом муҳитни яратиш орқали

жамият, хусусан ёшлар маънавиятини юксалтира оладиган бешик ҳисобланади. Хулоса қилиб айтганда, маънавий тарбия бугунги куннинг энг долзарб масаласи. Бунга юртимизнинг барча зиёлилари -ўқитувчилар, журналистлар, ёзувчилар, врачлар, артистлар, барча раҳбарлар бирдек масъулдирлар. Мамлакатимизда тарбияни ҳозирги замон талаблари даражасида олиб боришда мавжуд барча имкониятлар ва воситалардан самарали фойдаланганимиздагина маънавияти юксак ёшларни тарбиялашга эришиш мумкин бўлади. Баратов Р.Ў.

Оила-муқаддас кўрғон

- [sarvarchik](#) номли блог

Оила-муқаддас кўрғон.ТошТЙМИ кат.ўқ. С.Т.Собирова Оила ҳар бир жамиятда авлодлар давомийлиги таъминловчи, муқаддас урф-одатларни сақловчи, авлодлар тарбиясини мунтазам такомиллаштирувчи ижтимоий маскандир. Президентимиз Ислом Каримов оиладаги ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги муносабатлар юксак маънавиятга асосланиши лозимлиги қуйидаги фикрида ўз ифодасини топади: “Оилавий тарбия масаласида хатога йўл қўймаслик учун аввало ҳар қайси хонодондаги маънавий иқлимни ўзаро ҳурмат, ахлоқ-одоб, инсоний муносабатлар асосига қуриш айтиш муддао”¹ Бу сифатларнинг оилада мавжуд бўлиши эса, ота-онанинг тарбия кўрганлиги ва ўз хатти-харакатлари учун юксак маъсулиятни ҳис этишлари ва уларни ҳаёт жараёнларида тўғри ва ўринли қўллай билиш кўникмаларида намоён бўлади. Оилада шаклланаётган ёш авлоднинг маънавий жихатлари шундай нозик ва мураккаб, унда хўжа кўрсинликка йўл қўйиш, кўзбўямачилик қилиш ярамайди, чунки бу жараёнда шахснинг энг олий қадриятлари оила ва жамият ҳамкорлигида шаклланиб, такомиллашиб беради. Шунинг учун бу жараёнда, масаланинг тарихий, маданий, маърифий, диний, дунёвий ва тарбиявий омилларини ҳисобга олишни тақозолайди. Маънавий юксак шахсларда эътиқоддаги собитлик, шахсий манфаатларни умуминсоний манфаатлар билан уйғунлаштириш,

уларда юксак ватанпарварлик ва инсонийлик тамойилларини шакиллаштириш муҳимдир. Ҳар бир шахсдаги бу олийжаноб фазилатларнинг шаклланиши оиладан бошланади ва бунда ота-она намуна вазифасини ўтамоғи лозим. Афсуски, бугунги кунда кўпгина оилаларда шахсий манфаат масалаларининг устивор позицияга чиқиб бориши бир томондан, жамият иқтисодий негизларини мустаҳкамланиши, оила фаровонлиги, жамият моддий-иқтисодий юксалиши учун муҳим асос сифатида баҳоланмоқда ва бу оилавий бизнес, хусусий тадбиркорлик кўринишида фарзандларда тадбиркорлик, омилкорлик, ўзгалар меҳнатини кадрлаш каби фазилатларни шакллантирса, мазкур муаммолар ўзининг маънавий асосларига эга эканлиги, яъни ота-оналар фарзандини ҳеч кимдан кам бўлмаслиги учун оиладаги иқтисодий фаровонлик масаласи билан чекланиб қолаётганлиги, фарзандлар томонидан улар меҳнатининг кадрланмаслиги, уларда боқимандалик, худбинлик, ўзгалар дардини тушунмаслик, сурбетлик каби иллатларни ҳам пайдо қилиши мумкин. Шу боис, ота-она нафақат оиланинг иқтисодий асослари балки маънавий негизларини ҳам таъминлаши лозим. Бунда фарзанд тарбияси учун ота ва она баробар жавобгар сифатида улардаги сўз билан иш бирлиги, аниқ мақсад сари интилувчанлик, фарзандлардаги ижодий имкониятларни намоён қилишга кўмаклашишлари лозим.. Оиладаги иқтисодий ва маънавий омилларнинг уйғунлиги фарзандларда ҳам юқори даражадаги ижтимоий маъсулиятни хис этишга ўргатади ва бу юрбошимиз қуйидаги фикрларида ўз ифодасини топган: "... айнан оила мухитида пайдо бўладиган ота-онага ҳурмат, уларнинг олдидаги умрбод қарздорлик бурчини чуқур англаш ҳар қайси инсонга хос бўлган одамийлик фазилатлари ва оилавий муносабатларнинг негизини, оилавий маънавий оламни ташкил этади”.

Ўзбекона оила ўзига хосдир ва у бошқа халқлар оила моделидан тубдан фарқланади. Унда авлодлар давомийлиги, янги оиланинг барпо бўлиши муайян тарбиявий, ижтимоий тажрибага эга бўлган оила негизида амалга оширилади. Оила таркибининг бундай мураккаблик ижтимоий

муносабатларнинг ўзига хослиги ва ундаги барча аъзолари ўртасида муносабатларнинг маънавий-ахлоқий жихатлари фарзанд тарбиясига таъсир кўрсатиши ва оилада намунавийлик имкониятларини оширади. Бундай мураккаб оила моделида нафақат ота-она, балки бува ва буви, амма, амаки ва бошқа оила аъзоларининг ҳам маънавий етуклиги фарзанд тарбиясига ўз таъсир ўтказади. Шунинг учун ҳар бир шахс маънавий камолотида у тарбия топган оиладаги инсоний қадриятлар ва уларнинг қанчалик мукамаллиги катта аҳамиятга эга. Мустақиллик йилларида жамиятнинг таянчи бўлган оила ва уни ҳар тарафлама ривожини таъминлаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бўлиб, давлат ёш оилаларни ижтимоий ҳимоялаш, йигит-қизларимизни оилага тайёрлаш, уларни тиббий кўрикдан ўтказиш, ёш оилаларни уй жой билан таъминлаш, уларга турли моддий ёрдам кўрсатиш борасида хайрли ишларни амалга оширилмоқда. Жумладан, “Мустаҳкам оила” йилида бунинг учун 1478,7 миллиард сўм маблағ ажратилиши, юртимизда бугунги кунда 7 миллион оила мавжуд бўлса, уларнинг купчилиги ёш оилалар эканлиги ва оилани мустаҳкамлашда ижтимоий консесус (“келишув”) таъмоилини кенг қўллаш катта самара беради. Бунда маҳаллалар бошқа давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ҳамкорликда ёш оилаларнинг тинч-тотувлиги ва фаровонлигини таъминлаш, ҳамда нотинч оилалардаги шаритларни ўрганиш ва уларга моддий-манавий ёрдам бериш борасидаги фаолитларини такомиллаштириш лозим. Тошкент темир йул муҳандислари институтида ҳам бу борада кўплаб хайрли ишлар амалга оширилмоқда, жумладан, 2012 йилда институт ўқитувчи, ходимлар томонидан 15 та ёш оилалар бунёд этилган бўлиб, уларга энг кам иш ҳаққининг 2 баробар миқдорида, талабаларнинг 53та янги оилаларига энг кам стипендиянинг 50% миқдорида моддий ёрдам кўрсатилди. Шунингдек, институт Касаба уюшмаси томонидан моддий ёрдам билан бирга, дам олиш масканларига йўлланмалар берилди. Оила-муқаддас қурғон, уни ҳимоялаш ва сақлаш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Ўсмирларнинг оилавий вазиятлар орқали ўзини ўзи англашида мустаҳкам оиланинг роли

- Мустаҳкам оила - юрт таянчи

Оила, бу одамииинг ўзини ўзи англаши давомида, у нисбий барқарорликка эришгунига қадар, уни ўраб турадиган ва кзшинча унинг «Мен» ининг шаклланишига ҳам позитив, ҳам негатив таъсир этадиган ижтимоий маскандир. Мустақилликка эришганимиздан сўнг оилага, оила тарбиясига жуда катта эътибор ва ғамхўрлик кучайтирилди. 1998 йилнинг юртбошимиз томонидан мамлакатимизда «Оила йили» деб номланиши, «Оила кодекси»нинг қабул қилиниши, Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 2 февралдаги 54-сонли қарорига биноан Республика «Оила» илмий-амалий марказининг ташкил этилганлиги, 1999 йилнинг «Аёллар йили», 2000 йилни «Соғлом авлод йили» ва ниҳоят 2012 йилни «Мустаҳкам оила йили» деб номланиши ҳукуматимиз томонидан оила фаровонлиги, тинч-тотувлиги, барқарорлиги ва мустаҳкамлигини таъминлашга бўлган юксак эътибордан далолатдир. Албатта бу бежиз эмас, чунки порлоқ эртамининг тамал тошлари оилада қўйилади. Аждодларимиз фарзанд тарбиясига бефарқ қарамаганлар. Ҳаётдаги ҳар қандай хатти-ҳаракатнинг оқибати тўғри баҳоланган. Негаки, оила шахсни вужудга келтирувчи, улғайтирувчи, бинобарин жамиятни ҳамиша янги авлодлар ҳисобига тўлдириб берувчи буюк кучдир. Ҳар бир оиланинг ўтмиши, уларнинг ўз анъаналари, удумлари бор, оилаларга шу нуқтаи назардан баҳо берилади. Президентимиз Ислон Каримов таъкидлаганларидек, «Оила — жамиятнинг негизи... Бунда ўзаро ҳурмат ва қаттиқ тартиб бўлмаса, оиланинг барча аъзолари ўз бурчларини адо этмоқ, бир-бирига нисбатан эзгулик билан меҳр-оқибат кўрсатмаса, яхши ва муносиб тарзда яшаш мумкин эмас. Оила турмуш ва виждон қонунлари асосига қурилади, ўзининг кўп асрлик мустаҳкам ва анъанавий таянчларига эга бўлади, оилада... одамларнинг талаб-эҳтиёжлари ва қадриятлари шаклланади. Ўзбекларнинг аксарияти ўзининг шахсий фаровонлиги тўғрисида эмас, балки оиласининг, қариндош-уруғлари ва яқин

одамларининг, кўшнилариининг омон-эсонлиги, тўғрисида ғамхўрлик қилишни биринчи ўринга қўяди. Бу эса энг олий даражада маънавий қадрият, инсон қалбиниинг гавҳаридир». Ҳеч кимга сир эмас, бу дунёда ҳар қандай инсон вояга етиб касб-хунарга эга бўлиб, ҳаётда ўзўрнини ва келажагини аниқлаб, оила қуришни истайди. Оила — бу муқаддас даргоҳдир. Оила бор экан, ҳаёт абадийлиги, бебаҳо неъмат бўлмиш, фарзанд бор экан, авлодлар давомийлиги таъминланади. Оила — бу ҳаётимиз таянчи, суянчи, жамиятимизни ҳал қилзшчи асосий бўғиндир. Оилада сингдирилган тарбия, ватан, эл-юрт, мустақиллик, озодлик ҳақида берилган тушунча, тасаввур ўсмирнинг қалбида бир умр муҳрланиб қолади. Оила мустаҳкам, тинч, фаровон, соғлом бўлсагина, жамиятда бар- қарорлик вужудга келади. Юртбошимиз Ислом Каримовнинг «Юксак маънавият — енгилмас куч» номли асарида таъкидлаганидек: «Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакллантириш ва юксалтиришда ҳеч шубҳасиз оиланингўрни ва таъсири беқиёсдир... Оиладаги маънавий муҳит ва тарбия туфайли бола ё меҳрибон ёки худбин ва бағритош бўлиб вояга етишини тушуниш қийин эмас... Бу ёруғ дунёда ҳаёт бор экан, оила бор. Оила бор экан фарзанд деб аталмиш бебаҳо неъмат бор. Фарзанд бор экан одамзод ҳамиша эзгу орзу ва интилишлар билан яшайди». Бугунги кунда биз ҳеч кимдан кам бўлмайдиган демократик давлат, халқимиз учун озод ва фаровон ҳаёт қуриш мақсадлари билан яшар эканмиз, албатта, мустақил давлатимизнинг мустаҳкамлиги, халқимизнинг озод ва фаровон ҳаёт кечириши жамиятимизнинг асосий бўғини, таянчи бўлиши оилага боғлиқдир. Бизнинг миллий муҳитимизда, яъни менталитетимизда фарзандлар ота-оналарига ўхшашга ҳаракат қиладилар, ота-оналар эса ўзларн беихтиёр ўз характер ва хусусиятларини, орзу-ҳавасларини фарзандларига сингдириб борадилар. Айнан ана шундай характер хусусиятларидан бири бўлган меҳрмурувватлилик ота-онадан фарзандларига ўтади. Айниқса, ўсмирлик давридаги болаларга ота-онанинг меҳрибонлиги, доимий назорати ва дўстона маслаҳати катта аҳамиятга эга. Аммо афсуски, кўпгина ота-оналар фарзандини «бебош» қилиб қўймаслик

учун бу ажойиб инсоний туйғудан чўчийдилар. Улар боланинг тантиқ, шахсиятпараст бўлиб қолишидан ташвишланадилар. Лекин жуда кўп салбий хусусиятлар бола ота-онанингтўғри мурувватидан, эркалашидан, эътиборидан маҳрум бўлган шароитларда вужудга келади. Шунинг учун ҳам бола уни севишларига, ғамхўрлик кўрсатишига ишонч ҳосил қилиши ота-онанинг муҳим вазифасидир. Ҳар қандай фарзанд учун, аввало, ота-онанинг меҳрибончилиги, эътибори зарур. Аксарият жиноятчи бўлиб қолган болалар ота-оналарининг ва яқин қариндошларининг меҳрибон эмаслигидан азият чекадилар. Бундай носоғлом оила муҳитида руҳан эзилиб, ҳар хил касалликларга чалиниши мумкин. Бундан ташқари, у бекорчилик оқибатида, ичкиликбозлик, ўғрилиқ, гиёҳвандлик, жиноятчилик кўчаларига кириб кетиши ёки турли жиноий ва диний экстремистик гуруҳларнинг таъсирига тушиб қолиши мумкин. Оиланинг мустаҳкам бўлиши, оиладаги тинчлик-тотувлик, фаровонлик, албатта, эр-хотин муносабатларига боғлиқдир. Ақлан етук, ахлоқан пок, жисмонан бақувват фарзандлар яхши оилаларда камол топади. Шунинг учун ҳам оилада соғлом маънавий, ахлоқий муҳитни вужудга келтириш ва уни мустаҳкамлаш умумдават аҳамиятига молик масаладир. Чунки ижтимоий ҳаётда юз берадиган барча ўзгаришлар, яъни, ундаги ютуқ ва камчиликлар, мураккабликлар ва зиддиятлар оилада ўз аксини топади. Шунга кўра, оила ва оилавий тарбия масалалари ҳар доим ҳам долзарб муаммо сифатида эъти- роф этилади. Айниқса, бола шахсида «Мен» сиймоси таркиб топишида ота-она томонидан берилаётган таълим-тарбия ва таъсирнинг аҳамиятшлиги ҳамда оиладаги психологик муҳитнинг соғломлиги, шахслараро муносабатлардан қоникқанлик даражаси билан боғлиқлиги масаласи муҳим саналади. Маълумки, шахсда ўзини ўзи англашни таркиб топишида ота-она шахсининг таъсири муҳим ҳисобланади. Ўсмирлик ёшида ўзини ўзи англашнинг ўзига ўзи баҳо бериш, «Мен» образи, рефлексия даражаси ва бошқаларда намоён бўладиган айрим аспектларининг шаклланиш хусусиятлари ва уларнинг мазмунан бойиши ўз оилавий вазиятини идрок қилиш спедификаси билан ўзаро алоқадордир,

деган таҳлил олға сурилади. Ўзини ўзи англаш ўз ривожланиш жараёнида, айниқса, ўсмирлик ёши босқичида кўплаб турли факторларнинг таъсирига дучор бўлади. Боланинг ўзини ўзи англашининг ривожланишига, ўз спецификасига боғлиқ равишда ҳам ижобий, ҳам салбий таъсир этадиган энг муҳим шароитлардан бири деб кўпчилик психологлар оилавий вазият хусусиятларини тилга олишади.

Оиладаги соғлом муҳит, инсонпарварлик муносабатлари фарзанднинг руҳий дунёсига ижобий таъсир кўрсатиш мезони сифатида

- Мустаҳкам оила - юрт таянчи

Оила функцияларининг муваффақиятли бажарилиши ҳар қандай оила бахтини таъминловчи мезон ҳисобланади. Шунинг учун оиланинг ўз вазифаларини муваффақиятли бажариши нафақат унинг ички ҳолатига, шу билан бирга жамиятнинг ижтимоий соғломлигига ҳам таъсир этади. Оиладиги соғлом муҳит, одамийлик, инсонпарварлик муносабатлари фарзанднинг руҳий дунёсига ижобий таъсир кўрсатади. Ота-онанинг ўзаро яхши муносабати, меҳрибонлиги, ғамхўрлиги оиладаги фарзандларнинг муносабатларини тўғри шакллантиришга ёрдам беради. Она қизида мулойимлик, ширинсуханлик, қизларга хос орият, уятчанлик, ибо, иффат каби фазилатларни тарбиялаш билан бирга, унга уй-рўзғор юмушларини ўргатиш ҳам лозим. Ота ўғлида тўғрисўзлик, меҳнатсеварлик, олийжаноблик, фидойилик, саховатпешалик каби ҳислатларни шакллантириши билан бирга уйда эркаклар бажарадиган барча юмушлардан бохабар бўлишни таъминлашлари лозим. Айрим статистик маълумотларга қараганда бугунги интенсив турмуш тарзини кечираётган оилаларда идеал сиймога яқин ота ҳафтасига фарзандлари тарбиясига атиги 1,5 соат, она 4-5 соат, иш билан машғул деб қаралувчи ота — 12 минут, она — 3 соат вақтини ажратар экан. Бундан кўриниб турибдики, ажратилган вақт болаларни баркамол шахс сифатида қарор топишида етарли эмас. Айрим оилаларда эркакларнинг бола тарбиясидаги иштироки кам вақтни эгаллайди. Шу сабабли бугунги кунда кўча безори, девиант хулқли болалар пайдо бўлмоқда. Маълумки, оила ва

қариндошлик муносабатлари ҳар қандай киши ҳаётининг зарурий қисми ҳисобланади. Оилавий муносабатлар — эр ва хотин, ота-оналар ва болалар, ака-укалар ва опа-сингиллар ўртасидаги муносабатлар ҳар жиҳатдан илиқ ва қониқарли бўлиши мумкин. Аммо бу муносабатлар ёшларни чуқур умидсизлик ва гуноҳкорлик туйғуларига етакловчи муаммолар ва ихтилофлар билан ҳам тўла бўлиши мумкин. «Оилавий ҳаётнинг «қоронғу томонлари» телевидение ва бошқа оммавий ахборот воситаларида намоён қилинадиган айрим кўркем манзараларга зиддир. Оиланинг бузилишига ва ажралишига олиб келадиган зиддиятларни, жанжанларни ҳисобга олган ҳолда, оилавий ҳаётнинг ўзига тортмайдиган кўпгина салбий томонлари ҳам мавжуд. Баъзан руҳий касалликлар ҳам оилавий муносабатлар характериға таъсир этади. Ўзининг салбий оқибатларига кўра, оилавий ҳаётдаги агрессивлик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик ва бошқа иллатлар оғир ҳолатлар ҳисобланади». (Гидденс Энтони. Социология. — Т.: 2002. — 450-б.). Айниқса, ота-оналар ажралишининг болаларға ўтказадиган салбий таъсирини баҳолаш жуда қийин. Ажралиш олдида ота-оналар ўртасидаги тортишувнинг қанчалик кучли эканлиғига, болаларнинг ёшиға, уларнинг қариндошлари бор йўқлиғига, боланинг ажралган ота-онаға бўлган муносабатларига, ҳар икки ота-онанинг тез-тез кўришиб туриш имкониятининг бор-йўқлиғига кўп нарса боғлиқ. Булар ва бошқа бир қатор омиллар боланинг кўникиш жараёниға таъсир кўрсатади. Болалар оиладаги руҳий-маънавий тангликни тезда сеза олиш қобилиятларига эгадирлар. Шунинг учун ҳам ажралиш ҳолатларининг салбий оқибатлари болалар учун ниҳоятда оғир кечади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ота-оналари айрилганидан сўнг, кўп ҳолларда болалар ўзларига кела олмай, хомуш юришади. Ўтказилган сўровнома натижаларидан шу нарса маълум бўлдики, болалар ота-оналарининг ҳар иккаласи билан мунтазам муомалада бўлиши ўта зарур педагогик жараёндир. Бу жараёнда болалар ҳулқида ижобий сифатларни шакллантириш мумкин. Оиланинг ўзи комил инсонни тарбиялай олмайди. Ўқув масканида педагоглар томонидан олиб бориладиган

тарбиявий фаолият оилавий тарбияни тўлдиради ва бойитади. Тажриба кўрсатишича, ўқув масканининг ота-оналар билан алоқалари бузилиши мазкур даргоҳнинг тарбия жараёнига ҳам, оиланинг ҳаёт тарзига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 16 майдаги 162-сонли қарори билан маҳалла педагог-тарбиячиси лавозимининг ташкил этилиши, бу алоқаларни янада мустаҳкамлаш ва самарали бўлишига олиб келмоқда. Маҳалланинг ўқув маскани ва ота-оналар билан ҳамкорлиги янада кучаймоқда. Маҳалла педагоги ҳудудидаги ёшлар ва вояга етмаганлар орасида турли ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларнинг олдини олиш борасида катта ишлар олиб борилмоқда. Ўқув масканларида бериладиган таълим-тарбия даражаси билан ўқувчи-талаба шахсининг оилавий турмуш тарзи орасидаги алоқадорликнинг педагогик жиҳатдан таъминланганлиги ҳамда таълим олувчиларнинг ютуқлари, уларда шахсий сифатларнинг таркиб топиб бориши жадаллаштиради. Ёшлар ҳулқида учрайдиган нуқсонлар: ёлғончилик, агрессивлик, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишда ўқув масканларида бериладиган таълим-тарбиянинг таъсирини ошириш йўллари тадқиқ этишда оила диагностикаси муҳим аҳамият касб этади. Маълумки, аниқ мавзуга қаратилган ҳар қандай фаолият ўз самарасини беради, шунинг учун ҳам муайян ижтимоий педагогик ёрдамга муҳтож оилаларни ижтимоий педагогик тахҳис асосида аниқлаб, уларга реал ёрдам кўрсатиш, яъни оилада валеологик соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва болаларга тўғри тарбия бериш мақсадга мувофиқдир. Оилага тарбиясида айнан оила диагностика муҳим аҳамият касб этади. Ҳар бир оиланинг эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда уларга ижтимоий педагогик ёрдам беришда махсус амалий ишлар муҳим аҳамиятга эга. Оилада соғлом турмуш тарзини сақлашга доир ота-оналарнинг педагогик-психологик тайёргарлигига бўлган эҳтиёжни ташҳис этиш бўйича махсус амалий иш қуйдагича амалга оширилади: -мақсадни белгилаш. Яъни оиладаги эришилган ютуқларни аниқлаб, уларга суянган ҳолда ота-оналарнинг яна қандай имкониятларга эга эканликларини ҳамда қандай ёрдамга муҳтож эканлигини белгилаш; -

ҳаракатлар алгоритми, яъни ота-оналар орасида оила ташҳисини ўрнатишга доир анкеталар тарқатиш, уларга жавоблар олиш, таҳлил этиш, уларнинг тавсифига кўра ота-оналарнинг кичик гуруҳларга ажратиш ва ташҳис натижалари билан таништириш каби фаолиятдир; -диагностика асосида педагогик консилиумларни ташкил этиш, психологик хизматни амалга оширилади. Оилавий тарбиянинг ўзига хослиги шундаки, у болаларга ота-она, қон-қариндошлик, авлод-аждод ҳислатларини узатади, унинг давомийлигини сақлайди, фарзандни шахс сифатида шакллантиради, ҳаётга тайёрлайди. «Оилавий тарбия доимо ўзининг мураккаб ва кўп қирралилиги, ажойиб ва сержилолиги билан ажралиб туради»-, деб таъкидлайди А.Мунавваров. Ҳар бир оила ўзига хос бир олам, олам ичидаги ва шу билан бирга оламга сиғмаган олам, у тарбия ишида ўзига хос, такрорланмас хусусиятларни ўзида намоён қилади. Ана шунинг учун ҳам оилавий тарбиянинг ҳаммага маъқул тушадиган йўл-йўриқлари мавжуд эмас. Оила жамиятнинг бошланғич ижтимоий бўғинидир. У ўзида оила аъзоларининг эҳтиёжлари, қизиқишлари, майллари, тарбияси ва бошқа ижтимоий фаолият турларини акс эттиради. Ота-оналарнинг бола шахсига илмий дунёқараш асослари, маънавий-ахлоқий, нафосат, меҳнат ва бошқа ижтимоий омилларни шакллантириш мақсадида тизимли таъсир кўрсатиши бугунги кундаги энг долзарб масала бўлиб қолмоғи лозим.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVALAR